

83
A-26

DAVLATOVA ADIBA

ISHOQXON TO'RA IBRAT
HAYOTI VA IJODIY-MA'RIFIY
FAOLIYATINI
O'RGANISH MUAMMOLARI
(USLUBIY QO'LLANMA)

TOSHKENT-2018

83
A-26

DAVLATOVA ADIBA

**ISHOQXON TO'RA IBRAT
HAYOTI VA IJODIY-MA'RIFIY
FAOLIYATINI
O'RGANISH MUAMMOLARI
(USLUBIY QO'LLANMA)**

TOSHKENT-2018

83.3

A-76

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

W

TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT

PEDAGOGIKA INSTITUTI

DAVLATOVA ADIBA

ISHOQXON TO'RA IBRAT HAYOTI VA
IJODIY-MA'RIFIY FAOLIYATINI
O'RGANISH MUAMMOLARI

(USLUBIY QO'LLANMA)

07/05

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT-2018

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-EJHLI

A.Davlatova. Ishoqxon To'ra Ibrat hayoti va ijodiy-ma'rifiy faoliyatini o'r ganish muammolari. – T.: «ZUXRA BARAKA BIZNES» MChJ 2018, 67-bet

Mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7-8 iyul kunlari Namangan viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan majlisi bayonining 81-bandi hamda Oliy va o'rtal maxsusus ta'lif vazirligining 2017 yil 14 sentyabrdagi 87-02-2987-sonli topshirig'i asosida tayyorlangan dastur doirasida ishlab chiqildi. Ushbu uslubiy qo'llanma oliy ta'lif muassasalari bakalvriat ta'lif yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi: A.Davlatova. TVCHDPI "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasи dotsenti

Taqrizchi: N.Jabborov. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasи majlisida muhokama qilingan va tasdiqlash uchun tavsiya etilgan.

Bayonnomma №4 "25" oktyabr 2018 yil

Uslubiy qo'llanma Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutining Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

Bayonnomma №6. "20" noyabr 2018 yil

KIRISH

XIX asr oxiri –XX asr boshlari Turkiston tarixiga ijtimoiy-siyosiy, madaniy o'zgarishlar davri bo'lib kirdi. Ijtimoiy turmushdagi qator yangilanishlar mana shu o'zgarishlar sarnarasi o'laroq maydonga keldi. Bu davr ijtimoiy-madaniy hayotining eng xarakterli jihatlaridan biri milliy uyg'onish harakatining vujudga kelishi va uning zamirida yangi adabiyotning shakllangani bilan izohlanadi.

Bu jarayonda Turkiston xalqi boshidan kechirgan mustamlakachilik siyosati natijasida jamiyatminig ilg'or qatlami, xususan ziyolilar ongida mustaqillik orzusining paydo bo'lishi, qolaversa, mahdudlik, ma'rifatsizlik, jaholatga qarshi cheksiz isyonning tug'ilishi muhim rol o'ynadi. Shunday qilib, o'lkada millat taraqqiyoti va yurt ravnaqini ko'zda tutgan nafaqat ma'rifiy-madaniy yangilanishlar, balki yangi adabiyot, yangicha adabiy-estetik qarashlar ham eski, an'anaviy adabiyotning o'mini egallay boshladi.

Ijtimoiylasha borgan bu davr adabiyotida G'arb so'z san'atidan ilhom-lanish, o'zga millatlar adabiy tajribalariga ergashish holatlari kuzatiladi. Lekin unda milliy mentalitet, diniy qadriyatlар oxirgi o'ringa tushib qolgan emas. Aksincha, tarbiya, millat va jamiyat taraqqiyoti masalalari asosiy o'rinni tutadiki, muayyan asarda qo'yilgan muammoning echimida, tahlilida ijodkorning ijtimoiy-estetik ideali yaqqol namoyon bo'ladi. Qolaversa, XX asr boshlaridagi adabiyot, unda qo'llangan yangiliklar keyingi yillar adabiyotida muhim ko'rik vazifasini o'tagan.

Ma'lumki, har bir davr adabiyotining ustuvor yo'nalishlari, o'ziga xos badiiy-estetik jihatlari bo'ladi. Ishoqxon To'ra Ibrat adabiy merozi mavzu ko'laming kengligi, ma'rifat g'oyasidan tortib, ijtimoiy-siyosiy kurashlarga qadar aks ettirgani bilan ajralib turadi. Bir so'z bilan aytganda, uning adabiy merozi xalqimizning ziddiyatli o'tmishi tarixi hamdir. Unda ifodalangan ijtimoiy-estetik ideallarni tasniflash, tahlil etish, ilmiy xulosalar berish adabiyotshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7-8 iyul kunlari Namangan viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan majlisi

bayonining 81-bandи hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017 yil 14 sentyabrdagi 87-02-2987-sonli topshirig‘i asosida tayyorlangan dastur doirasida ishlab chiqildi. Ushbu uslubiy qo‘llanma oliy ta’lim muassasalari bakalvriat ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan.

1-MAVZU: Ibratshunoslik. Ishoqxon Ibrat – tilshunos olim

REJA:

1. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari
2. XIX asr oxiri – XX asr boshlari o‘zbek adabiyotida Ishoqxon Ibrat ijodiy faoliyatining tutgan o‘rnii
3. Ibratshunoslikka bir nazar

Tayanch so‘z va iboralar: milliy uyg‘onish, estetik tamoyillar, ijtimoiy voqelik, usuli savtiya, litografiya, milliy matbuot, qatag‘on, aruz, barmoq vazni.

Ishoqxon To‘ra Ibrat Turkiston tarixining eng ziddiyatli, ijtimoiy-siyosiy jihatdan keskin o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan davrida yashab ijod etdi. Ma‘rifatparvar shoir, serqirra olim, jonkuyar pedagog va jurnalistning faoliyatini o‘rganish uchun u yashagan davr manzarasidan to‘liq boxabar bo‘lish taqazo etiladi. Jadid adabiyoti va adabiyotshunosligi, undagi estetik tamoiyllarning shakllanish tarixiga umumiylar nazar tashlashdan oldin, garchi bu davr adabiyoti “yangi” maqomiga da‘vogarlik qilishiga qaramasdan, o‘zidan oldingi ijodkorlarni va ijod namunalarini badiiy o‘zlashtirgani, uning bag‘rida etishib chiqqanini ta‘kidlash lozim bo‘ladi. Faqat XIX asr oxiri – XX asming boshlariiga kelib, tarixiy sharoit keskinlashgan, millatning ijtimoiy-siyosiy, ma‘rifiy va madaniy ahvoli ayanchli manzara kasb etgan edi. Mana shu vaziyatdan qutilish, millat ravnaqini ta‘minlash uchun ham, islohat masalasi kun tartibiga ko‘tarildi. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotini ijtimoiy voqelikdan ayri holda o‘rganib bo‘lmasligining sababi ham ana shunda. Hamonki, yurt taraqqiyoti, millatni uyg‘otish vazifasi bosh mavzuga aylangan ekan, unga xizmat qiladigan vosita zaruriyati ham yuzaga keldi. Tabiiyki, bu jarayonda badiiy so‘z qudratidan kuchliroq vosita yo‘q edi. Umuman olganda, tarixning tub burilishlari davrida har doim adabiyot, matbuot minbar vazifasini o‘tagani haqiqat.

Badiiy adabiyot muktab, maorif, ijtimoiy-maishiy masalalardan tortib, siyosiy masalalarni qamrab olish darajasiga ko‘tarila bordi.

Badiiy asar faqatgina ijtimoiy voqealar tasviri bilan chegaralanib qolsa, tabiiyki, uning badiiyatiga putur etadi. Lekin aynan XX asr boshlari adabiyotiga mana shunday talablarning qo'yilishi ijtimoiy turmushni yaxshilashga qaratilgani nuqtai nazaridan o'zini oqlaydi. Demak, adabiyotshunoslik ham asarlarning shu jihatini e'tiborga oldi.

XIX asrning oxirlariga kelib, badiiy adabiyotda mavjud an'analardan qoniqmaslik ruhidagi asarlar ijod qilina boshlandiki, bu keyinchalik jadid estetikasiga jiddiy ta'sir qildi. Ya'ni mayjud voqelikni asar tabiatiga singdirish shoir qalbida kechgan millat qayg'usi bilan bog'liq izziroblarni o'quvchiga "yuqtirish" ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda yordam berishi tayin edi. Shuning uchun ham adabiyotning oldiga aniq vazifalar qo'yila boshlandi.

Kelajak avlodning axloqli bo'lib kamol topishida albatta qalam ahli oldida yuksak mas'uliyat turadi. Shoirlar va adiblar doimo millatning tili, vijdoni hisoblangan. Vatanga, onaga, yorga muhabbat ham avvalo badiiy asar, go'zal she'riyat orqali ham qalbda, shuurda sayqallanadi.

Adabiyot tuyg'uni o'stiradi, rujni tarbiyalaydi. Shuning uchun ham badiiy ijod har vaqt umumiyyidir. Garchand san'atkor shaxsiy kechmishi, qalb hayajonlarini nazmga solgan bo'lsa-da, muayyan o'quvchi unda o'zini ko'rishi, she'rdagi dard begona emasligini tuyishi mumkin. Shuning uchun ham badiiy asar minglab kitobxonga ta'sir ko'rsatish, o'ziga ergashtira olish xususiyatiga ham ega. O'tgan asming boshlarida mana shu haqiqatlarni anglab etgan ziyorilar badiiy asar oldiga, she'riyatga ma'lum talablar qo'ya boshladilar. "...Emdi umid qilurmizki, bir rhundin so'ng fazilatlu shuarorniz (bir ikki zot istisno) oshiqona she'r va hajvomiz nazm inshod etmakdan voz kechub, zamонаг'a muvofiq fanniy, milliy va axloqiy she'rilar (ta'kid bizniki-A.D.) inshod etarga kirishsunlar. Toki, bu sababdan butun mustaqbaldagi (kelajak, istiqbol -A.D.) avlodimizning axloqlari tuzula boshlab, milliy hislari va axloqlari tuzalsun".

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkistonda qisqa muddat oralig'ida voqe bo'lgan har tomonlama shiddatkor kurash butun fojeasi, qarama-qarshiliklar fonida kechgan kuchli tragik dramatizmi bilan xalq o'tmishining "eng kir, qora"(Abdulla

Qodiriy ta'biri)davri bo'lib tarixga kirdi. Ijtimoiy hayotdagи muayyan o'zgarishlar professor B.Qosimov ta'kidlaganidek millat ongida o'zgarishlar yasadi. Tafakkurning yangilanishi tabiiyki, so'z san'ati bo'lgan adabiyotga ham ta'sir qildi.

Davrlar inson dunyoqarashiga, shakllangan, o'zgargan dunyoqarash esa tuzumlarga ta'sir ko'rsatgani kabi ijtimoiy-siyosiy voqelik oqimidagi yangilanishlar badiiy asarlarda ham aks etishi tabiiy hol. XIX asr oxiri -XX asr boshlaridagi adabiyot ma'rifatchilik bo'yog'ining qüyuqligi, ruhiy kechinmalardan, qalb evrilishlaridan ko'ra, ijtimoiy mazmunni ko'proqifodalagani bilan ajralib turadi.

Ishoqxon To'ra Ibrat ko'pqirrali ijodkor sifatida "Lug'ati sittati alsina", "Jome' ul- xutut", "Tarixi Farg'ona", "Mezon uz-zamon", "San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy" kabi ilmiy, pedagogik va badiiy asarlar meros qoldirdi.

Ibrat hayoti va faoliyati tadqiqi bo'yicha shug'ullangan jadidshunos olimlar B.Qosimov, U.Dolimov va N.Jabborovlarning ilmiy maqolalari o'rganayotgan mavzu uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Ibrat faoliyati tadqiqiga bag'ishlangan ishlар	Muallif nomi	Nashr nomi va yili
Ishoqxon Ibrat adabiy portreti	Ibrohim Davron	"Turkiston viloyatinining gazeti" 1908 yil, 56-son
Ishoqxon Ibrat faoliyati	-	"Vaqt" gazetasi. 1913 yil
Ishoqxon Ibrat hayoti va ijodiy merosi	U.Dolimov (dissertatsiya)	1975 yil
"Ma'rifat darg'alari"	B.Qosimov, U. Dolimov	1990 yil
Istiqlol fidoyilar. Ishoqxon Ibrat	U. Dolimov	1994
Ibrat. Ajziy. So'fizoda.	Mualliflar jamoasi	1999 yil
Ibrat	U. Dolimov.	OTM talabalari Darslik. 2004 yil.
Ishoqxon To'ra Ibrat.	U.Dolimov, N.Jabborovlar tomonidan nashrga tayyorlangan	Tanlangan asarlar. Toshkent. "Ma'naviyat", 2005 yil
Milliy uyg'onish pedagogikasi	U. Dolimov.	2012 yil.
Ishoqxon To'ra Ibrat.	Ibrat	O'zbekiston Markaziy Davlat arxiv, 1009-fond, 115-yig'ma jild, 15—16-

		varaqlar.
Tarixi Farg'ona.	Ishoqxon Ibrat.	O'z FASHI Qo'lyozmalar fondi, inv. № 11080
Tarixi madaniyat.	Ishoqxon Ibrat.	O'z FASHI Qo'lyozmalar fondi, inv. № 11616
Ilmi Ibrat.	Ishoqxon Ibrat.	Turaqo'rg'on: Matbaai Ishoqiya, 1909
San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy.	Ishoqxon Ibrat.	- To'raqo'rg'on: Matbaai Ishoqiya, 1908

Manbalarda qayd etilishicha, Ishoqxon To'ra Ibrat 1862 yili Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlog'ida dunyoga kelgan. Ibratning otasi Junaydullaxo'ja ham xat-savodli, onasi Huribibi esa o'z davri ayollarida ko'p ham uchramaydigan fazilatga ega ya'nini o'qimishli, ziyoli bo'lgan. Ishoqxon Ibrat ilk tahsilini qishloq maktabida oladi. Onasi uning o'qish-yozishi, bilim olishi bilan shaxsan shug'ullanar edi. Bu haqda o'zi shunday yozadi: "Avvalgi vaqtidagi mahalla maktabida 5 yilda 3 adad muallimda o'qub, oxiri savodim chiqmay, keyin qizlar maktabida, o'z uyimizda validai marhumhamdan o'qub savod chiqardim. Ikki sana qiblagohimdan husnixat mashq etdim"¹.

So'z san'atiga bo'lgan ayricha e'tiborini sezgan ota-onasi uni Qo'qonga o'qish uchun yuboradilar U XIX asr boshlarida barpo etilgan Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida 1878 yili o'qishni boshlaydi. "Ishoqxon Ibratning Qo'qon madrasasida tahlil ko'rgan yillari (1878- 1886) o'zbek adabiyotida, madaniy hayotida, maorifida tub sifat o'zgarishlar sodir bo'layotgan davrga to'g'ri keladi. Uning bu adabiy-madaniy hayotdan bahramand bo'lganligi shubhasiz. U Qo'qon adabiy muhitining yirik namoyandalari Muqimiyl, Furqat, Muhyi, Zavqiy, Nodim, Haziniylar bilari yaqin aloqada bo'lgan, adabiy mushoiralarda ishtirok etgan."²

Qo'qon madrasasani tamomlagan Ishoqxon Ibrat o'z qishlog'i To'raqo'rg'onga qaytib keladi va birinchilardan bo'lib, 1907 yilda zamonaliviy maktab ochadi. U maktabida "usuli savtiya" metodidan foydalanadi. U o'z davrida sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning faol kuzatuvchisi va tarafori sifatida mahalliy

maktablarni ko'proq tashkil qilish va milliy kadrlar tayyorlash masalasini echimiga qaratilgan qator ilg'or yangiliklarni olib kirdi. O'z shaxsiy sarmoyasini millat ravnaqi va kelajak avlod uchun beminnat sarf etdi. Afsuski, barcha davrlarda bo'lgani kabi bu yangiliklarning joriy etilishi oson bo'lgan emas. Mahalliy mutaassib kishilar tomonidan Ibratning yangi maktabi qattiq tanqid qilindi va yopib qo'yildi.

Ishoqxon To'ra Ibrat uchun maorif yo'li berkitilgach, madaniy, maishiy yo'l bilan ziyo ulasha boshladi. Uning xalqi uchun olib kirgan yana bir yangiligi 1908 yili "Fotografiyai Ishoqiya"ning, 1910 yili esa To'raqo'rg'on aholisi uchun istirohat bog'i bunyod etishidir.

Agar mamlakatimizda sodir bo'lgan yangiliklar zamiriga nazar tashlaydigan bo'lsak, avvalo davr taqazosi, qolaversa, milliy ziyorolarimizning rivojlanayotgan o'lkalarga amalga oshirgan sayohatlarining ham ijobjiy ta'siri bor, albatta. Negaki inson o'zi mansub bo'lgan muhitdan bir qadar chekinganida, o'z va o'zgalar hayotini kuzatish, tahlil qilish, baholash hamda taqqoslash imkonli yanada kengayadi. Mahmudxo'ja Behbudiy va Ishoqxon To'ra Ibratlarning haj ziyorati maqsadida qilgan safarlari natijasi mamlakatimizning keyingi ijtimoiy-siyosiy hayotida sezilarli o'zgarish yasadi. Ishoqxon To'ra ham avvalo onasini muqaddas ziyoratga olib borish maqsadida katta safarga otlanadi. Onasi kutilmaganda ziyorat davrida kasallanib vafot etadi. Taqdir sinoviga ko'ngan shoir onasini Jidda shahrida dafn etib, mutaraqqiy o'lkalar hayoti, madaniyatini o'rghanish maqsadida Sharq va Evropa shahrlariga sayohat qiladi. Bu haqda o'zi quyidagicha yozib qoldirgan: "...Umrum naqdini havas bozorida kechirmak taqozosi-la o'lub, sinnim yigirma besh kechmish ekan, havoit taqozoi muhtarama dushub sayohat etdum..."

Ishoqxon To'ra Ibrat sayohati davomida ko'p tillarni mukammal o'rgandi. Zamondoshlarining xotirlashlaricha, u o'nga yaqin tillarni, ayniqsa, arab, fors, hindurdu va ingliz tillarini o'z ona tilidek yaxshi o'zlashtirgan. Bu haqda zamondoshi Ibrohim Davron shunday e'tirof etgan: "...Fazoili insoniyadin maoda qozi to'ra janoblari turkcha, forscha, hindicha, ruscha lison bilib, yana ruscha, fransuzcha,

¹Ibrat Tanlangan asarlar. T.:Ma'naviyat, 2005. B.3

²O'sha manba.

armanicha va boshqa xatlar yozmoqqa mohirdurlar.”³ Ishoqxon To’raning zamoni olim ekanligi yuqoridagi tavsiflardan yanada oydinlashadi.

“Lug’ati sittati alsina”. “Sittati al sina” degan janob qozining ixtiro qilgan lug’at kitoblari, garchand kichik bo’lsa ham, bizning Turkiston viloyatimizda sartiyalardan shuncha til bilib, bul tariqa kitob va lug’at tasnif qilgan odam yo’q edi. Binobarin, ul janob qozining bosma uchun yuborgan va tasnif aylagan lug’at kitoblarini ko’rub, bosma qilmoqqa ijozat berilsa kerak, deb umid aylab gazetaga yozduk. Ul lug’atlarni ko’b ko’rib o’qidiñ. Aning uchun bu so’zni men to’qidim”⁴. Zamondoshlarining yozishlaricha, garchi ko’philik rus tilini bilsa-da, hech kim til o’rganuvchilar uchun maxsus lug’at tuzmagan. Bu ham Ishoqxon To’ra Ibratning zamonasining peshqadam ziyolilaridan biri bo’lganini yana bir tasdiqlaydi. Ibratning N.Ostromovga qayta-qayta maktub yo’llashi va boshqa sa’y-harakatlari tufayli kitob tuzilganidan bir necha yil o’tib, 1901 Toshkentda V.I.Ilin bosmaxonasida chop etiladi. Asar arab yozuvida bitilgan bo’lib, til o’rganuvchilar uchun ancha qulay yaratilgan. Ya’ni dastlab o’zbek tiliga mansub biro so’z beriladi va uning qarshisiga ana shu so’zning boshqa tillardagi tarjima va muqobil variantlari beriladi. Asar muallif tomonidan ikki qismga ajratilgan. Lug’atda mingdan ortiq so’zlar izohi va tarjimasi keltiriladi. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, olim o’sha paytda iste’molda bo’lgan eng faol so’zlarini qo’llagan. Bu esa o’z navbatida hafaqat rus, balki boshqa tillarhi o’rganuvchi kishilarga ham ancha qulaylik tug’dirgan.

“Jome’ ul-xutut”. Ishoqxon To’ra Ibratning tilshunoslikka oid yana bir asari yozuvlar majmuasi tadqiqiga bag’ishlangan. Hammamizga ma’lumki, yozuvning paydo bo’lishi insoniyat taraqqiyotiga juda katta ta’sir o’tkazgan. Chunki yozuv va uning asosida vujudga kelgan kitoblar o’tmish va kelajakni bog’lovchi ma’naviy ko’prikdir. Negaki, inson xotirasi barcha ma’lumotlarni saqlab qolish imkoniga ega emas. “Qo’lyozmalar yonmaydi” degan ibora bekorga maydonga kelmagan-ku axir. Ajdodlar dahosining nodir kashfiyotlari bevosita yozma manbalar orqali etib kelgan. Til va yozuvlar tarixi muayyan millatning tarixi hamdir. Shuning uchun ham

qadimdan olimlar dunyo sivilizatsiyasiga sezilarli ta’sir o’tkazgan qabila va elatlarning yozma manbalarini yillar davomida o’rganganlar. Mayyalar va shumerlar, assteklar qoldirgan yozuvlardagi axborotlar hali-hanuz insoniyatga o’ziga chorlashi bejiz emas.

Ishoqxon To’ra Ibrat ko’pqirrali olim sifatida yana bir katta tadqiqotni amalga oshirdi. Yozuv tarixini o’rganish, muayyan til tarixini tadqiq etishdan ancha murakkabroq sohadir. Ibrat fanning mana shunday mas’uliyatli sohasiga qo’l urib, “Jome’ ul-xutut” (“Yozuvlar majmuasi”) nomli ilmiy asar yaratdi. Ibrat yirik tilshunos olim sifatida pictografik yozuvlardan tortib iste’moldagi yozuvlar tarixini tadrijiy o’rgandi. Ushbu ilmiy asar 132 betdan iborat. “Jome’ ul-xutut” 1912 yili “Matbaai Ishoqiya”da nashr qilingan. Ibrat noshir sifatida ham faoliyat olib borgan bo’lib, nashriyot ochishga ham muvaffaq bo’lgan edi. Ishoqxon Ibrat bu asar haqida quyidagilarni yozadi: “Bul xatlarni(ng) boqiy va tariq qarori muddao bo’lib, hammillatimizga yagona bir tarix qoldirmoq qasdinda va ham olama bir asar qoldirmoq niyat etub, bu misra mujibi:

Asardurki olamg’ a o’lg’ay nishon,

Kishi beasardur ketar benishon,-

mazmunicha botadvin aylab, royi soqib, arbobi xasm va arbobi fazlu kamollarga manzurqilib, millatga nishon qoldirib ham millatimiz lisoni turkiy uchun umumiylar turkiy ilansartiya xalqini(ng) naf’ olmog’i muddao bo’lib, adabiyi milliyona qilmay, ravshan turkiyqildim. Millatimiz(ning) forsiylariga ikkinchi tab’ada forsiy qilinur va jami xatlargajome’ uchun “Jome’ ul-xutut” tasmiya edub, o’z xatimiz va o’z tilimiz va o’z matbaaimizda tab’qilmoq maqsad bo’lib, tab’i sharif, ahli raso va qalbi latif, ahli zakolarga peshkash qildim”.⁵

Muallif mazkur asarida dunyodagi 41 yozuv tizimi tasnifini amalga oshirgan.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Ishoqxon Ibrat nashr ishlarini yo’lga qo’yish uchun litografik mashina sotib oldi. Ishoqxon litografiya anjomlarini qiyinchiliklar bilan Rossiyaning Orenburgidan Qo’qongacha poezdda, Qo’qondan To’raqo’rg’ongacha tuyalarda olib keldi. 1908 yilda o’zi 1905 yili qurdirgan

³“Turkiston viloyatining gazeti”, 1908, 56 son.

⁴“Turkiston viloyatining gazeti”, 1901, 4 avgust, 30-son.

⁵ Jome’ ul-xutut. Namangan: Matbaai Ishoqiya, 1912, 6—7-betlar.

hammom o'mida "Matbaai Ishoqiya" nomi ostida nashriyot uyini ishga tushirdi. Bu ulug' olim avvalo mahalliy ziyyolilarimizning usuli jadid maktablari uchun ta'sis qilgan darsliklarini chop etish orqali yosh avlodni kitob bilan ta'minlashni maqsad qilgan edi. Qolaversa, turli nomdagi vaqtli matbuot namunalari va risolalarni ham nashr qilib, aholi o'tasida mutolaaga bo'lgan qiziqishni yanada orttirish va qondirish yo'lida tinimsiz harakat qildi. Matbaa ishi shu qadar dolzarb ekanligini o'sha davming o'zi ko'rsatdi. Kichik litografiya yirik tipolitografiyaga aylantirildi va u Namangan shahrida barpo qilindi. Ishoqxon Ibratning "San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy" risolasi, "Ilmi Ibrat" nomli she'rilar to'plami, yozuvlar tarixiga bag'ishlangan "Jome' ul-xutut" kabi asarlari o'zi tashkil qilgan matbaada nashr etildi.

Milliy uyg'onish davri ziyyolilariga xos bo'lgan umumiy jihat mayjud. Ya'ni ular millat uchun foydali deb bilgan har qanday yangilikni yoqlab chiqdilar va bu yo'lda molini ham jonini ham ayamadilar. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiy din peshvosi bo'lishi bilan bir qatorda dramaturgiya, teatr, tarjima, publisistika, pedagoglik, noshirlik, jurnalistlik faoliyati bilan muntazam shug'ullandi. Har bir asari va harakatida millatni jaholatdan uyg'otish, mamlakatni mustabid zulmdan ozod qilish, mutaraqqiy o'lkalar safiga qo'shilish, har tomonlama etuk avlodni tarbiyalash kabi ulug' maqsad yotadi. Ishoqxon Ibrat ham ana shunday serqirra ma'riftparvar sifatida milliy matbuotimiz rivojiga hissa qo'shishni o'ylab, 1913 yili "Matbaai Ishoqiya" qoshida "At-tijor al-Namangan" nomli gazeta chiqarishni orzu qiladi va hukumatga murojaat etadi. Lekin afsuski uning bu harakatiga yo'l berilmadi. Ibrat ma'rifat tarqatishning yana bir boshqa samarali tizimi mexanizmini ishlab chiqqan holda, shaxsiy xonardonida sharq va g'arb kitoblarini o'z ichiga olgan katta kutubxona tashkil qildi va uni "Kutubxonai Ishoqiya" deb nomladi. Mazkur kutubxona minglab yoshlarning aql-zakovatiga, hayotda o'z o'mini topishida va dunyoqarashining kengayishida muhim vosita bo'ldi.

Ishoqxon Ibrat 1897-1924 yillarda To'raqo'rg'on qozisi lavozimida ham faoliyat ko'rsatdi.

1928-29 yillarga kelib, millat ziyyolilarini qatag'on qilishning birinchi bosqichi amalga osha boshladi. Dastlab bu harakat ziyyolilarni mas'ul vazifalaridan chetlatish

ko'inishida bo'lgan. Ya'ni 1928 yilda Munavvarqori maktab o'qituvchiligidan haydalib, 1929 yil qamoqqa olingan, jismoniy va ma'naviy zARBAGA duchor bo'layotgan vaqtlar edi.

Mana shunday holatlar badiiy ijodga ham beta'sir qolmadı. Lekin ming afsuski, milliy ziyyolilarimiz boshlab bergan uyg'onish harakatlariga mustamlakachilar siyosiy tus berib, uning faollarini birma-bir millat bag'ridan yulib ola boshladi. Ularning asarlari ham o'zları ham qatog'onga uchradi. 1937 yillarning qatag'on mashinası 75 yoshli keksa Ishoqxon To'ra Ibratni ham chetlab o'tmadı. Mo'ysafid yoshidagi ulug' olim, shoir, ma'rifatparvar Ibrat Andijon qamoqxonasida og'ir sharoitda hibsdä ushlab turildi. G'ayriinsoniy qyinoq va azoblar, ruhiy zo'riqishlar natijasida bu ulug' inson 1937 yil 75 yoshida olamni tark etdi. Pedagogika fanlari doktori, professor U. Dolimov Ibrat hayotiga bag'ishlangan maqolasini "Qatag'onning keksa qurboni" deb nomlagan edi. Bu achchiq haqiqat edi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, eng avvalo buzib ko'rsatilgan tariximizni, milliy ziyyolilarimizning pok nomlarini oqlash vazifasini amalga oshirdi. Yuzlab ziyyolilarimiz qatori Ishoqxon To'ra Ibrat nomi va asarlari ham millat bag'riga qaytarildi. Asarlari tabdil qilinib, qayta-qayta nashr etildi. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotiga baho bergan har bir olim va tadqiqotchining ilmiy izlanishlarida Ishoqxon Ibrat adabiy merosi va faoliyatiga albatta munosabat bildirildi. Shoiring nomini abadaylashtirish uchun qator tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7-8 iyul kunlari Namangan viloyatiga tashrifi davomida millatning ulug' ma'rifatparvar shoiri nomi yana bir bor yodga olindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning topshirig'iga asosan "Ishoqxon To'ra Ibrat hayoti va ijodiy faoliyati" maxsus kursi tashkil etildi. Maxsus kurs gumanitar, ijtimoiy, iqtisod va huquq bilim sohalari bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun tashkil qilindi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Hijo usuliga asoslangan maktab haqida gapiring.
2. Usulisavtiya maktablarining eski maktablardan qanday farqi bor edi?

3. Savtiya so‘zining lug‘aviy ma’nosini bilasizmi?
4. Ibratning birinchi ustozini kim bo‘lgan?
5. Ibrat qaysi adabiy janrlarda ijod qilgan?
6. Ibrat qaysi tillarda ijod qilgan?
7. Ibrat tilshunos sifatida qanday asar yaratgan?
8. Ibrat qaysi nomlarda tarixiy asarlar yozgan?
9. Ibrat tuzgan lug‘at necha tilli?

Asosiy adabiyotlar:

1. Ishoqxon To‘ra Ibrat. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchilar, so‘zboshi va izohlar mualliflari U. Dolimov, N. Jabborov). –T.: Ma’naviyat, 2005.
2. Dolimov U. Ishoqxon Ibrat. –T.: SHarq, 1994.
3. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri adabiyoti. –T.: Ma’naviyat 2004 y.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2017 yil 7-8 iyul kunlari Namangan viloyatiga tashrifi davomida so‘zlagan nutqi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida qarori. // Xalq so‘zi, 2017 yil 21 aprel

3-MAVZU: IBRAT ASARLARIDA ESTETIK IDEAL MUAMMOSI

REJA:

1. Estetik ideal tushunchasining badiiy asardagi ifodasi
2. Ishoqxon Ibrat asarlarida estetik ideal.

Tayanch so‘z va iboralar: estetik ideal, estetik tamoyillar, ijtimoiy vogelik, milliy she ‘riyat, adabiy meros, aruz, barmoq vazni, tashbeh, talmeh.

Estetik ideal fojeiy holatlар bilan bir qatorda, kulgu elementlarini ham o‘z ichiga olishi mumkin. Estetik idealni fojeiy elementlar, ya’ni xuddi hayotdagi kabi iztirob va o‘lim tushunchalaridan, Shuningdek, hayotiy zavq va kulgudan ayri holda tasavvur etish qiyin. Chunki bu kabi elementlarsiz u hayotiyligini yo‘qotadi.

Bu o‘rinda go‘zallik, donolik, jismoniy mukammallik, ma’naviy butunlik, xunuklik, nodonlik kabi estetik kategoriylar ham tasvirlanayotgan estetik idealning qirralarini kashf etishda yordam berishini ta’kidlash kerak.

“Biron ta yirik asar yo‘qli, go‘zallik, yaxshilik, haqiqat, ideal qahramon va hayot mazmunini anglash borasida muayyan savollarga javob izlamagan bo‘lsa. Inson yaralgandan buyon bu kabi savollarga echim qidiriladi, lekin u har safar yangi shakllarga ega bo‘lgan holda namoyon bo‘laveradi. Buning uchun urchun diniy savollarga tayangan V.S.Solovev, L.N.Tolstoy va F.M.Dostoevskiy ijodi, hayot mazmuni borasida A.P.Chexov, I.A.Bunin, ijtimoiy ideallar aks etgan M.A.Gorkiy, V.V.Mayakovskiy, A.P.Platonov, totalitar g‘oyalarga qarshi, shaxs erkinligini ilgari surgan V.V.Nabokov, M.A.Bulgakov, M.A.Voloshin, B.L. Pasternak, urush davri insonlari xarakterini ochib berishga harakat qilgan Yu.V. Bondarev, V.P. Astafev, V.G.Rasputin, zamonaliv hayot va undagi oddiy odamlar o‘rnii muammolari borasida fikr yuritgan Ch.Aytmatov, V.M. Shukshin va hokazolarning ijodini eslash kifoya”⁶

Mukammal jamiyat va unda ilm-ma’rifat,adolat kabi tushunchalarning etakchilik qilishi borasidagi orzular XVIII asr G‘arbda o‘ziga xos ko‘rinishda

⁶Славин В. Личность в контексте культуры. (Религиозный идеал В. Соловьева как синтез истины, добра и красоты). – <http://rl-online.ru/authors/171.html>.

namoyon bo'ldi. Evropada aynan ma'rifatchilik g'oyasi ilgari surildi. Inson va jamiyat orasidagi uzviy aloqadorlik muammosi ilm-ma'rifat yo'li bilan echilishi muhim vazifa sifatida maydonga chiqdi.

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida shakllangan yangi estetik qarashlar, yangi janrlarning badiiy ijodga kirib kelish jarayonini tadqiqetishdan oldin Evropa ma'rifatchilik adabiyotiga nazar tashlash lozim. XVIII asrda Evropada maydonga kelgan ma'rifatchilik g'oyasi adabiy asarlarning asosini tashkil qildi. Bu davr bilan tanishish, "bir tomondan XVIII asr Evropa ma'rifatchilarining asarlari arab va fors tillariga tarjima qilina boshlagani va ikkinchi tomondan, Turkiya, Rossiya va Evropa mamlakatlari o'quv yurtlarida musulmon aholi vakillarining tahlil olishi natijasida Evropa ma'rifatchilik g'oyalari bizning hududimizga kirib kela boshlagani va jadidchilik g'oyalaring shakllanishiga muayyan ta'sir o'tkazganini aniqlash imkonini beradi".⁷

XVIII asr Evropa ma'rifatchiligi va milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti o'rtaidagi fikriy mushtaraklik ijtimoiy ruhning birlamchiligi bilan izohlanadi. Evropa ma'rifatchilar huquqsiz shaxsnинг erkin taraqqiyotiga mone bo'lgan jamiyatga va uning boshqaruvchilariga qarshi isyon ko'tardilar. YA'ni bu davr fikrlar tadrijida hissiy qabul qilish orqali go'zallik mohiyatini anglash tamoyili asosiy e'tiborda bo'lgan.

Fridrix Shiller izlanishlarida, nazariy qarashlarida ko'proq badiiy adabiyotdag'i, san'atdagi estetik idealga murojaat qilinadi. Uning "Go'zallikning mezoni va estetik ideal haqida" deb no'mlangan tugallanmagan ishi va estetika bo'yicha yozilgan maqolalarida go'zallik, uning inson hayotida tutgan o'mni xususida qimmatli mulohazalar bor. Jumladan, uning fikricha, "agar ideal chinakamiga zaruriyat yuzasidan paydo bo'lishi kerak bo'lsa va so'zsiz bir maqsadga yo'naltirilgan axloqiy intilishni ifodalasa, uning uchun zamon tushunchasi bo'lmaydi, kelajak ham ayni zamon bo'lishi mumkin. Haqiqiy estetik ideal chinakam san'at asari singari o'lmasbo'ladi", deya estetik idealning badiiy asarda tutgan o'rnnini yuqori baholaydi⁸.

⁷ Сандов У. Европа маърифатчилиги ва миллий ўйғониш. – Т.: Академия, 2004. – Б.10.

⁸ Шиллер Ф. Собр. соч.-нис в 7 ми т. Т6. Статьи по эстетике. Гос.издат. Художественная литература. – М., 1957. – стр.277.

Didro esa go'zallik hissiyot orqaligina anglanishi lozim, aks holda u mohiyatdan chekingan tushuncha bo'lib qoladi, qabilida fikr yuritadi.

Go'zallik kategoriyasi estetikaning eng muhim va asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Estetika mustaqil fan, o'z navbatida hamma fanlarga taalluqli. Shuningdek, badiiy asarni tahlil qilganimizda ham, uning estetik tomonini e'tiborga olamiz. Adabiyot go'zallikni his qilishni o'rgatadi, estetik didni shakllantiradi. Har qanday orzu muayyan maqsadga yo'naltirilgan g'oyaga, pirovard natijada unga erishish yo'lidagi xatti-harakatga asos bo'ladi. Orzu ma'lum bir inson, guruh yoki jamiyat miqyosida bo'lishi mumkin. Ijtimoiy vogelikda mavjud bo'laman, lekin o'sha davr ijodkori dunyoqarashida shakllangan g'oyalar, mukammallik tizimi shudavr adabiy jarayonida aks etishimumkin. F. Shiller to'g'ri ta'kidlaganidek, "ijodkor-o'z davrining farzandi".

SHunga ko'ra, u ifodalayotgan ijtimoiy yoxud estetik ideallar davr talabi nuqtai nazaridan, qolaversa, ijodkorning dunyoqarashidan kelib chiqqan holda ishonarli yoxud soxta g'oyalarga xizmat qilishi mumkin.

О'збек
Estetikaning muhim kategoriyasi—ideal, avvalo, ong shaklidir. Odatda, unga hissiy bilish to'g'risidagi fan deb baho berilgan. Demak, ideal ham ijodkor ongida anglangan jarayonlar mahsuli. Tashqi muhitdan qabul qilingan axborotlar uning badiiy tafakkurida tahlil qilinib, yanada mukammal shaklda in'ikos etadi. Hali mayhum, amalga oshmagan orzular tizimida ijodkorning ijtimoiy-estetik ideali yashiringan bo'ladi. Nasriy asarlarda estetik ideal, albatta, badiiy obrazlar vositasida tasvirlanadi. Ideal qahramon—bu to'laqonli badiiy obrazdir.

Ijodkor tafakkurida shakllangan g'oyalar, go'zallik, nafosat, zamonaviylik va shu kabi o'chamlar insoniyat buguni va kelajagiga xizmat qiluvchi estetik idealni yaratishda ishtirot etadi. "Eng oliv estetik qimmatlar amaliy, axloqiy, ma'rifiy va xususiy estetik qimmatlarning yonida turadigan mohiyat emas, u mazkur qimmatlarning yaxlitligidan tashkil topadi".⁹ YA'ni, mukammallikni ta'min etuvchi bu xildagi shartlilik birlashmasidan badiiy asarda timsol obraz hosil bo'ladi. O'ziga xos betakror xarakter—mohiyatning obraqi sifatida insonning iqtisodiy, siyosiy,

ma'nnaviy kamoloti masalalari echimida ishtirok etadi. Darhaqiqat, ijodkor g'oyani real vogelikning o'zidan emas, balki mohiyatidan olgani singari, qahramonlarga ham real odamlarning u yoki bu jihatlarini olishi mumkin. Voqealar rivoji, maqsadi, orzu-ideallarini qay tarzda ifodalash uning ixtiyorida. Masalan, tarixiy romanlarda aks etgan ijtimoiy-estetik idellar ilgari sodir bo'lgan hodisa yoki muayyan xalqqahramonini aynan takrorlamaydi. Aslida, buning iloji ham yo'q. Negaki, ijodkor yoritmoqchi bo'lgan masala yoinki shaxs faoliyatini bevosita kuzatgan emas. Qolaversa, hayotda ideal shaxsnинг mavjud bo'lishi ham haqiqatdan bir muncha yiroq. Shunday ekan, san'atkor o'zlashtirgan fakt orgali tasavvur hosil qiladi, badiiy idrok, ilhom manbai bilan uni «jonlantiradi». Bunda ham vogelik—sodir bo'lгanning asli saqlanib qolsa-da, amalda asar vogeligi va uni harakatlantirayotgan qahramonlar yozuvchining zamondoshlari hamda ijtimoiy muhiti ruhini berishi mumkin. Odatda, asardagi bunday qahramonlar mukammal ideal obrazning go'zal xislat va xatti-harakatini, holatini yanada ravshanroqnamoyish qilish uchun ko'zgu vazifasini o'taydi.

O'zbek ma'rifatchilik adabiyoti namunalarida, keyinchalik maydonga kelgan yangi ruhdagi asarlarda qalamga olingan ijtimoiy-estetik idealga bahoberishdan oldiri yangi jamiyat va komil inson orzusi -XVIII asrga kelib, Evropada paydo bo'lgan ma'rifatchilik harakati va uning zamirida vujudga kelgan adabiyotda yangicha shaklda rivojlanganiga e'tibor qaratish lozim. G'arb ma'rifatchiligidagi inson aqli hal qiluvchi kuch sifatida talqin etilgan.

Tarixdan ma'lumki, Turkiyaning mashhur Gulxonasidan boshlangan tanzimotdan keyingi yangi turk adabiyotining rivojida G'arbning ta'siri kuchli bo'lgan. Bu haqda S.K.Etkin "Tanzimotdan keyin paydo bo'lgan adabiyotni va undagi adabiy maslakni yaxshi anglash uchun bizning g'oyaviy va adabiy hayotimizgamanba bo'lib xizmat qilgan Fransiyani va fransuz adabiy oqimlarini yaxshi o'rganmog'imiz lozim bo'ladi", - deb yozgan edi.

XIX asr oxiri XX asr boshlari musulmon sharqida ham shu kabi holat vujudga keldi. Bunda tarixiy sharoitni ham nazardan soqit qilmaslik kerak, albatta. Demak, tom ma'nodagi erkinlik, mukammallik, go'zallik borasidagi ijodiy tasavvur shu

yo'nalihsdag'i estetik idealning yaralishiga turki berdi. Qolaversa, mavjud tizim va jamiyatdag'i qoloqlikning inkori yuqorida ta'kidlaganimizdek, goh fojeiy, goh satirik lavhalar bilan boyib bordi.

Jadid adabiyoti va adabiyotshunosligi, undagi estetik tamoiyllarning shakllanish tarixiga umumiylar nazar tashlashdan oldin, garchi bu davr adabiyoti "yangi" maqomiga da'vogarlik qilishiga qaramasdan, o'zidan oldingi ijodkorlarni va ijod namunalarini badiiy o'zlashtirgani, uning bag'rida etishib chiqqanini ta'kidlash lozim bo'ladi. Faqat XIX asr oxiri – XX asrning boshlariga kelib, tarixiy sharoit keskinlashgan, millatning ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy va madaniy ahvoli ayanchli manzara kasb etgan edi. Mana shu vaziyatdan qutilish, millat ravnaqini ta'minlash uchun ham, islohat masalasi kun tartibiga ko'tarildi. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotini ijtimoiy vogelikdan ayri holda o'rganib bo'lmasligining sababi ham ana shunda. Hamonki, yurt taraqqiyoti, millatni uyg'otish vazifasi bosh mavzuga aylangan ekan, unga xizmat qiladigan vosita zaruriyati ham yuzaga keldi. Tabiiyki, bu jarayonda badiiy so'z qudratidan kuchliroq vosita yo'q edi. Umuman olganda, tarixning tub burilishlari davrida har doim adabiyot, matbuot minbar vazifasini o'tagani haqiqat. Badiiy adabiyot muktab, maorif, ijtimoiy-maishiy masalalardan tortib, siyosiy masalalarni qamrab olish darajasiga ko'tarila bordi.

Badiiy asar faqatgina ijtimoiy voqealar tasviri bilan chegaralanib qolsa, tabiiyki, uning badiiyatiga putur etadi. Lekin aynan XX asr boshlari adabiyotiga mana shunday talablarning qo'yilishi ijtimoiy turmushni yaxshilashga qaratilgani nuqtai nazaridan o'zini oqlaydi. Demak, adabiyotshunoslik ham asarlarning shu jihatini e'tiborga oldi. XX asr boshlarida yangi adabiyot va undagi masalalarga yangicha qarash zamirida jadid adabiyotshunosligi ham maydonga keldi. Millat ertasiga o'zini mas'ul hisoblagan har bir ziyoli, avvalo, ijtimoiy foydali asarnigina qabul qilish tarafidori edi. Shuning uchun an'anaviy adabiyotda kuylangan obrazlar tanqid qilindi. Ular Vatan (Ibrat, Avloniy, So'fizoda), muktab (Avloniy), millat (Tavallo, Ajziy) singari obrazlar bilan almashib bordi va shoirlardan ham aynan shulardan yozish talabi kuchaydi. Lekin yangilik o'z-o'zidan bo'lgan emas. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, jadidlar mumtoz adabiyot manbalarini puxta egallagan, estetik

qarashlarining shakllanishida aynan qadim Sharq va G'arb tafakkurining xizmati beqiyos edi. Buni adabiyotshunos U.Jo'raqulov ham ta'kidlab, "yangi estetikaning shakllanishi tom ma'noda dialektik qonuniyat asosida bo'ldi"¹⁰, deb yozadi.

XIX asrning oxirlariga kelib, badiiy adabiyotda mavjud an'analardan qoniqmaslik ruhidagi asarlar ijod qilina boshlandiki, bu keyinchalik jadid estetikasiga jiddiy ta'sir qildi. Ya'ni mavjud voqelikni asar tabiatiga singdirish shoir qalbida kechgan millat qayg'usi bilan bog'liq izardiplarni o'quvchiga "yuqtirish" ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda yordam berishi tayin edi. Shuning uchun ham adabiyotning oldiga aniq vazifalar qo'yila boshlandi. Masalan, Dilshod Barno bir g'azalida yozadi:

*Kel, diloromim, g'azal yoz, payraviyat olsun avj,
Ilmdin bahs ber, (bir) oz aqglu farosat olsun avj.¹¹*

Ya'ni, g'azal yozganda ham shunday yozginki, natijada payraviyat rivojlansin, ilmdan bahs och, toki aqlu farosat kamol topsin. Demak, mumtoz g'azalchilikda kuylangan ma'shuqaning ta'rifu tavsiflari hozirgi zamon uchun ortiqcha edi. Shuning uchun ham Dilshod Barno zamondoshlariga murojaat qilib, ilmu ma'rifatdan yozish lozimligi, natijada izdoshlik, aynan shu yo'nalishda ijod qiladigan shoirlar etishishini orzu qiladiki, bu mavjud holatdan norozilik kayfiyatining hosilasi edi.

Demak, endi adabiyotga realistik tasvir zaruriyati kirib keldi. Qachonki, badiiy adabiyot haqiqatni bayon etsagina, jamiyat kishilarini xuddi ko'zguda ko'rgan kabi o'z nuqson va ayblaridan ogoh bo'ladi. Bu erda "Haq so'z – adolat, tenglik" kabi tushunchalaf estetik ideal talablaridan biri sifatida qalamga olingan. Demak, XIX asrning ikkinchi yarmidan Turkistonda ham ma'rifatchilik ruhidagi asarlar yozila boshlandi. Birinchidan, turkiy dunyo xalqlari va adabiyoti bilan yaqinlik tufayli, ikkinchidan, mustamlakachilikni boshidan kechirayotgan millatning ayrim ziyorilari hamda chor missionerlari o'rtasidagi ilmiy yoki rasmiy munosabatlar, qolaversa, tarixiy shart-sharoit taqazosiga ko'ra ilmni taraqqiy qildirishga undaydigan she'riyat va uning ijodkorlari maydonga chiqdi.

¹⁰Жўракулов У. Ҳудудсиз жилба. – Т.: Фан, 2006. – Б.77.
¹¹Дилшод. Айбар Отин. – Т.: Фан, 1994. – Б.18.

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining birinchi bosqichida ma'rifatchilik g'oyalari ilgari surilgan bo'lsa, bu g'oya keyingi davr jadid mafkurasining qon tomiriga aylandi. Ishoqxon Ibratning "Madaniyat haqida masnaviy" (1912) asarida Forobiyning fozi shahriga yaqin turadigan bir maskan, obod yurt tasviri chizilgan.

Jadidlar ham avvalo milliy va ma'naviy birlikni nazarda tutgan va asarlarida badiiy aks ettirgan edilarki, bu ular SHarq tafakkurining etuk bilimdoni Forobiyning "baxtga erishish uchun kishilar bir-biriga yordam beruvchi jamoa – fazilatli, ideal jamoadir"¹², degan fikriga tayangan edi, deyishga asos bo'ladi.

XX asr boshlarida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy va madaniy voqealar oqimi badiiy so'z san'ati bilan bir qatorda adabiyotshunoslikka ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Yaratilayotgan asarlar mazmuniga, qolaversa, davr taqazo sigma ko'ra yangicha yo'nalishda tahlil qilina boshlandi. Badiiy adabiyotdagи an'anaviy poetik shakllar, taqlidchilik qattiq qoralanganining asl sababi ham shunda edi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ibrat g'azallarida an'anaviy mavzular ifodasi.
2. Shoir she'rlarining mavzu ko'lami haqida fikrlaringiz.
3. Ibrat she'rlarida ma'rifatparvarlik g'oyalarinining tarannumi.
4. "Ishohi millat" she'rinini badiiy tahlil qiling.
5. "Chaman ichra" g'azalida an'anaviylik.
6. Ishoqxon Ibratning milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida tutgan o'mi.
7. Ishoqxon Ibrat haqida zamondoshlarining e'tirofini ayta olasizmi?
8. Bugungi kun adabiy, ijtimoiy hayotida Ishoqxon Ibrat asarlarining ma'naviy ta'siri nimalarda ko'rindi?
9. Ishoqxon To'ra Ibrat hayoti va ijodiy faoliyatini oliy ta'llim muassasalarida keng targ'ib qilish maqsadida qachon va qanday topshiriq berildi?
10. SHoir estetik idealini qanday tasavvur qildingiz?

¹²Иктибос куйидаги манбадан олинди: Хайруллаев М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. – Т.: Фан, 1971. – Б.254.

Asosiy adabiyotlar:

1. Ishoqxon To'ra Ibrat. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchilar, so'zboshi va izohlar mualliflari U. Dolimov, N. Jabborov). –T.:Ma'naviyat, 2005.
2. Dolimov U. Ishoqxon Ibrat. –T.: SHarq, 1994.
- 3.Qosimov B. va boshqalar. Milliy uyg'onish davri adabiyoti. –T.:Ma'naviyat 2004 y.

Qo'shimcha adabiyotlar:

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2017 yil 7-8 iyul kunlari Namangan viloyatiga tashrifi davomida so'zlagan nutqi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risida qarori. // Xalq so'zi, 2017 yil 21 aprel

3-MAVZU: Ishoqxon To'ra Ibrat g'azallari va asarlarini badiiy tahlil qilish tamoyillari

REJA:

1. SHoir g'azallarida an'anaviylik
2. Ibrat lirkasida ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning ifodasi

Tayanch so'z va iboralar: aruz, radif, badiiy san'atlar, shakl va mazmun, badiiyat, badiiy tahlil.

O'zbek milliy uyg'onish adabiyotida ifodalangan yangi jamiyat va zamon kishisi, ularning tasviri tahlilini berishda, tarixiy-ijtimoiy voqelik, ijodkor shaxsi va badiiy tafakkurining asar shakl-mundarijasiga, obrazlarga ta'sirini ham nazarda tutish zarur. Badiiy asarlarda, asosan, jamiyatdagi qoloqliklar ilg'or fikrli shaxs tomonidan inkor qilinadi va bu ziddiyatli qarashlar jamiyatda hamda insonlar hayotida muallif ko'rmoqchi bo'lgan xususiyatlarni yorqinroq tasavvur qilish imkonini beradi. Ijodkorning ijtimoiy-estetik idealida ideal yaratuvchining moddiy va ma'naviy go'zallik haqidagi tushunchalari yaxlitlanib, milliy qiyofada namoyon bo'ladi.

*Dunyo aylab safarlar, topmadim xo'b orqadosh,
Hasrati dilni deyolmay, hech etmay sirmi fosh.*

*Asrimiz insonlariga bo'lmadi bir dardkash,
Kimni so'rsang suhabat aylar sanda bo'lsa nomu osh.*

Bu davr she'riyatida estetik ideal ijtimoiy muammolarni qamragan holda zamonaviy ko'rinish kasb eta bordi. Bu davrda yaratilgan aksariyat ijod namunalarida mavjud jaholat qobig'iga o'rangan hayot, nafaqat millat turmushi, balki o'z hayotiga loqayd kishilar, fikrsizlik qattiqtanqid qilindi. Asarlardagi goh izardobi, goh kinoyali, ba'zan fojeiy satrlar, lavhalar ortida aslida muallifning orzuidagi jamiyat, yurt ravnaqiga mas'ul shaxslar timsoli turgan edi. Badiiy adabiyotda ijodkor maqsadining oliy darajadagi tasviri, inson va jamiyat xususida surgan o'y-xayollari badiiy tafakkuri bilan uyg'unlashgan holda uning estetik idealini belgilashda muhim o'rinn tutadi.

*Hamani qo'ymadni o'z holig'a, tashvishlar soldi,
Mushavvash aylagan bu ahli dunlardan qalaysizlar?*

*Fasodu olam etti shu kabi har erda insonni,
Bu tarzda fitnayu toroj bunlardan qalaysizlar?*

*Ki har bir kishida ming xil alomatu qiyomatlar,
Mashaqqat vaqtini umri o'rirlardan qalaysizlar?*

Shunday qilib, mute'lik, erksizlik, jamiyatdagi chirkin an'analar, mutassiblik, ong hamda turmush tarzidagi o'ta qoloqlikning inkori uning ziddi sifatida jadid ijodkorlari intilgan eng yuksak masnad darajasiga aylana bordi. Bu esa tarixiy voqelik talabiga ko'ra goh sho'xchan, goh g'amgin, xullas turfa notalarga solib kuylandi. Ishoqxon Ibrat "Bo'lubdur" radifli g'azalida ana shu mavzularni qalamga oldi. Ma'rifatsizlik oqibatida aholi o'rtasida kuzatilayotgan beandishaliklar, ilmma'rifatning tanazzuli shoirmi iztirobga soladi.

*Ey dahr eli, bilinglar, turfa zamon bo'lubdur,
Beandisha xaloyiq fe'li yamon bo'lubdur.*

Ya'ni shoir butun olamda istiqomat qilayotgan Inson bolalariga murojaat qiladi. **O'sha davr nuqtai nazaridan atrofida sodir bo'layotgan voqeа-hodisalarни tanqidiy** **tahlil qilar ekan ma'rifatsizlik ma'naviyatning tanazzuli odamlarni mahv** **taqifganida ta'rifliga turishi**.

*Olim bila fajrida zuhdit amal bo'numma.
Yoinki amri ma'ruf go'yo nihon bo'lubdur.*

Olim ham zohid ham, ya'ni taqvodor kishi bo'lsa-da, o'z mas'uliyatlari amalini **unutib qo'yayotganiga befarq bo'la olmaydi. Magarki, YAratganni tanigan kishilar** **shu qadar tuban ketsa, omi xalq qayoqqa boradi, degan istihola bilan ularni to'g'ri** **yo'lga chaqiradi.**

*Shayxlarni(ng) xonaqosi qolmay ani baqosi,
Bir-birin shikva qilmoq ul ham tamom bo'lubdur.*

Bu erda shoir ayni zamondoshlarini emas, balki aksariyat odamlar fe'lida paydo bo'layotgan salbiy o'zgarishlar, illatlarni qoralaydi. Bu illatlarga qarshi yagona davo bu ma'rifat ekani matn zamiridan anglashiladi. Ma'rifatli insonlar bilan yangi jamiyat qurmoq Ishoqxon Ibratlar orzu qilgan estetik idealning yorqin namunasi edi.

Professor N.Karimov Cho'lpon ijodini chuqur tahlil qilib, "davr, ruh, tabiat, til manzaralari kuyunchak shoir qalb prizmasidan o'tib, faqat Cho'lponga xos iste'dod, go'zal uslub bilan ifoda etilganini" yorqin misollar bilan dalillaydi.

Shoir shunchaki iztirob chekib qolmay, oqqan daryo yana qayta oqishiga albatte ishonadi. Yangi zamonlar va odamlar kelishidan umidvor bo'ladi. Bu istaklarini g'azal matniga shoirona singdiradi. Asar garchi an'anaviy aruz vaznida yozilgan bo'lsa-da, unda tamomila yangi mazmun ifodalangan. Ya'ni ilgari bu vaznda yozilgan g'azallarda asosan yor, oshiq, mahbubning ruhiy holati, badiiy tiynati aks etgan bo'lsa, bu davr she'riyatiga kelib, ijtimoiy masalalar aruz bag'ridan mana shunday o'rinni ola boshladi. Ibrat ham boshqa zamondoshlari kabi oyning yuzidagi ko'lanka bir kun kelib tarqalishi, o'lkada yaxshi o'zgarishlar, alaloqibat orzusidagi milliy istiqlol kelishiga qat'iy ishonadi. Lekin buning uchun Avloniy ta'biri bilan aytganda, ayni bir "idyol" kerak.

*Bir necha yillar ichinda shahrimiz jannat bo'lar,
Bul tariqa boshchilar qilsa tashabbuslar agar.*

Agar hamma insonlar ham shaxsiy muammolardan ko'ra millat va Vatan ravnaqini ko'proq o'ylasalar, bir necha yillar o'tib Movarounnahming eski shon-shuhrati yana eayin keladi. Ibrat buning uchun asosida taxminani bajarish tasnimligini uqtiradi:

*Xalqni targ'ib etib ishga bo'lsa qiladi,
Sahal kamillarda bo'hrilar jumali olama sari.*

Agar xalq orasidan chiqqan millatparvarlar yagona maqsad yo'lida jam bo'lsalargina, olamga bosh bo'lish mumkin, degan taxminini yozadi. Tasavvur qilib ko'raylik, ushbu g'azal yozilishidan atigi 10-15 yil oldingi ijodkorlar asarlarida bu kabi qat'iy masalalar ko'zga tashlanmas edi. Davr taqazosi va millat sha'ni hatto vazn talabini ham chetlab o'ta oldi.

*Har kishi ish ishlasa, doim ishi xursandlik,
Ishlamaslar o'z boshig'a urg'usi tig'i batar.*

Har kimga o'ziga yarasha rizq-nasiba ato etiladi. Lekin uni halol mehnat bilan qo'lga kiritish boshqa masala. Agar inson mashaqqat chekib, mehnat qilib sarmoya topsa kunlari ham, oilasi ham xotirjamlikda bo'ladi. Aksincha bo'lsa, u o'z boshiga

tig' urg'an bilan barobardir. Garchi bu dunyo sinovlaridan o'mon o'tsa ham, oxiratda albatta so'rog'i bo'ladi. Ibrat faylasuf shoir sifatida insonlarni halollikka va mehantsevarlikka chaqiradi.

*Sanga osmondin yog'urmu aqcha yo bug'doylar,
Qilma eldin san umidu o'z ishing o'zing bajar.*

*Ibrat olsunlar hama ishchi buning mazmunidin,
Ishlasang, qandingni ol, gar dangasa bo'lsang zahar.*

Ibrat nazzida boshqalarning muruvvatiga ko'z tikib umr o'tkazgandan ko'ra, oddiy ishchi bo'lib yashagan hayot mazmuniroqdir.

Ijodkor avvalo davr farzandi. Shuning uchun muayyan san'atkorning ijodini tarixiy sharoitdan ayri tasavvur qilish, tahlil etish qiyin. Ko'rindiki, endi estetik idealning takomil bosqichida ijodkorlar intilgan g'oya ma'rifatchilikdan milliy istiqlol orzusiga qadar o'sib bordi. qelikni hajv yo'li bilan yoritish, kinoyaviylik bu davr she'riyatida ham ustunlik qildi.

"Estetik ideal – badiiy obrazda mukammal hayot va inson qiyofasini namoyon qilishga xizmat qiladigan adabiy kategoriyalidir".¹³ Adabiyotshunoslar o'tasida ideal va voqelik, hayot haqiqatining ajralmasligi, bu tushunchalarning bir-birini taqazo etish-etmasligi masalasida qarashlar turlicha. Albatta, agar ijodkor real voqelikni asl holida asarga ko'chirs, u nusxakashlikdan boshqa narsa bo'lmaydi, lekin hayotdagi qarama-qarshiliklar, mavjud axloqiy, diniy, tarbiyaviy kategoriyalardan qoniqmaslik, shu xildagi ideallarning yaralishiga zamin hozirlaydi.

"Estetik ideal badiiy ijodga xos eng muhim tushunchalardan biri bo'lib, u ijodkorning xohishi, istagi asosida yotuvchi narsa yoki shaxsning qanday bo'lishini anglatadi".¹⁴

Ishoqxon Ibrat yashab, faoliyat ko'rsatgan davrda milliy maktablar bilan bir qatorda matbuot ham yangilik sifatida jamiyatga dadil kirib keldi. Qisqa davr

mobaynida o'nlab gazeta va jurnallarga asos solindi. SHoirning o'zi ham gazeta ochishni orzu qilgan, lekin uning bu sa'y-harakatlari ijobiyl natija topmagan. SHunday ekan shoir lirikasida gazetaga bag'ishlangan she'rlarning bo'lishi tabiiy holdir. U gazeta haqida batafsil to'xtaladi. Odamlarning axborot olishga ehtiyojlari nechog'lik baland bo'lishi, bu esa matbuot yordamida qondirilishi mumkinligi tarannum etilgan.

*Gazetdur jahon ahliga bir lison,
Muayyan erur anda yaxshiyu yomon.*

Gazeta jahon ahli uchun umumiy bir til kabidir. Unda dunyoda bo'layotgan yaxshiyu-yomon narsalar, voqealar izohi, yangiliklar, xabarlar o'rinn oladi. Uni o'qigan odamlar har tomonlama hushyor bo'ladi. "Men" va "u" kategoriyalari orqali tahlil qilish, qiyoslash imkoniga ega bo'ladi.

*Gazet ko'rmagan, bexabar xalqlar
Misli o'lgandur va yo uxlagon.*

Jamiyatda gazetaning voqelanishi ijobiyl hol ekanligini ta'kidlar ekan, gazeta ko'rmagan xalqni yo g'ofil yoxud jonsiz tanaga mengzaydi. Bunday o'xshatishlar hali milliy adabiyotimiz tarixida kuzatilmagan edi.

*Dedi bir kishi menga: "Bid'at gazet",
Dedim: "Qayda qoldiki, eski zamон?"*

Mahalliy "ulamolar" tomonidan yangiliklarni keskin tanqid qilinishini shoir johillik deb ataydi. Bid'at deb hukm chiqarishga ularning ma'naviy haqqi bormikin? Insonlar dunyo bilan hamnafaslikda yangiliklardan xabardor bo'lsalar buning nimasi yomon? Axir gazeta ularning hayotiy a'mollariga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Aksincha dunyodagi boshqa millatlar ahvoldidan boxabar etishda beminnat vositadir.

*Ajib so'filar, ajib so'filar,
Gazet onlarga bid'at, nodurust.*

SHoir go'yoki "ulamo" miz deya ko'krak kerib yurgan bunday badbin kimsalarning ahvoliga achinadi.

*Halol o'rniga kechti g'iybat degan,
Takalluf tamoq rasmi odat ekon.*

¹³ www.rifma.com.ru /Lito-46.htm

¹⁴ Хотамов Н., Саримсоков Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча ўзгати. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б.116.

Halol yashash, boshqalarni g'iybat qilmaslik, adashgan kimsalami to'g'ri yo'lga boshlash, ma'rifatga chorlash din vakillarining asosiy vazifalaridandir. Ularning milliy ziyolilarni dindan chiqqanlikda ayblashlari, ularning boshlagan ezgu ishlarini kufr deb e'lon qilishlari g'iybatdan o'zga narsa emasligiga muxlislarni ishontiradi.

Bular topsa erdiki ilmu adab,

Demas erdi bu xil so'zi bo 'Imagon.

Shoir nazdida bunday kimsalar o'zlarini aytganidek, dono, ilmu adab sohibi bo'lganlarida edi, bu kabi g'iybatlarga yo'l bermas edilar.

Gazet amru ma'ruf etar xalqg'a,

Yozar ko'b xabarlarni etmay nihon...

XIX asning oxirlarida Turkiston ijtimoiy hayotidagi haqsizliklar badiiy-estetik tarakkurida o'zgarish yasaganini yuqorida aytib o'tgan edik. An'anaviy she'riyatda kuylangan obrazlar bir qadar zaminiy tus oldi yoxud real voqelik to'g'ridan-to'g'ri asarlar mundarijasiga olib kirildi.

Ming uch yuzu yigirma oltida chopmaxona

Ochmoqg'a bo'ldi ruxsat va so'z berib zamona.

Ushbu she'r Ibrat hayotiga oid faktlarni ham o'z ichiga olgan. 1326 yil hijriy, 1908 milodiy yilda "Matbai Ishoqiya" faoliyat boshlaganiga ishora qilinadi. Hukumatga qayta-qayta murojaat qilib, o'z uyida litografiya tashkil qilgan shoir, nafaqat To'raqo'rg'on, balki butun millat ahli uchun yaxshi yangilik joriy qilgan edi.

Maqsad bu ishdan erdi olamg'a ilm kasri,

Ham qo'ymoqg'a asarlar yodovari jahona.

She'tning keyingi bandlarida shoir bu ishdan qilgan maqsadini bayon etadi. Ya'ni olamda ilm uchun va qolaversa, jahondä badiiy, ilmiy asarlar meros qoldirishdek ezzulik bu ishlar zamiridagi asl niyat edi.

Kasbu kamoli islom bo'lmay taraqqiyatda,

Holig'a tushmasun deb etduk buni bahona.

Shoir bu matbaa ishi millatni taraqqiyotga chorlash uchun bahona – sabab ekanini qalanga oladi.

Bizdin keyingilar ko'b ilmu hunar toparlar,

Hayfoki, anda biz yo'q, yo'q e'timodxona.

Shoir zamondosh milliy ziyolilarning bunday fidoyiliklari ertaga kelajak avlod qiyofasida yuksak kasbu kamol etishiga ishonadi. Shuning barobarida bunday amallarning nihoyatda kamligidan afsuslanadi.

Olamdin ushbu ona sonsiz kishilar o'tdi,

Mingdin biri qo'yubdur olamg'a bir nishona.

Olamda ming-minglab odamlar yashab o'tadi, lekin sanoqli insonlarning nomi tarixda qoladi. Tarixda yaxshi nom qoldirish uchun albatta yaxshi amallar sohibi bo'lishi kerak. Qilgan yaxshiliklari o'zidan keyin ham millat manfaati uchun xizmat qilsa bunday umr sohibi behuda yashamagan hisoblanadi.

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining birinchi bosqichida mayjud ijtimoiy turmushdan qoniqmaslik, uni ijobji tomoniga o'zgartirish ehtiyoji talabidan kelib chiqib qator asarlar yaratildi. Ushbu asarlarda hayotdagи realvoqelik badiiy ifodasini topdi. Ma'rifat g'oyalari ana'naviy she'riyat mazmuniga singa borgani holda jadid adabiyotida yaxlit mohiyat kasb etdi. Maktab, ilm-fan islohidan boshlangan o'zgarish siyosiy kurashlar minbariga aylana bordi. Mazmun shaklga ham ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. "Aruz murakkab, bo'ronli davning goh shiddatkor, goh bo'g'iq nafasini butun dinamikasi bilan keng ommaga etkazishda qiynalib qoldi".¹⁵

Ibrat qiling qildi duo,

Sandin ijobatdur yano,

Doyim deyur hamdu sano,

Ko'rgoni keldim sog'inib...

Ko'rinadiki, Ishoqxon To'ra Ibrat ham mazmun talabiga qarab, turfa she'r shakllarini faol qo'lladi.

Barmoq jadid she'riyati tanlagan eng maqbul vazn sifatida ta'lim islohi, ilm-irfonga da'vat, matbuot va teatrning "afzal sha'y"lardan ekanligidan tortib ijtimoiy turmushning takomiliga qadar g'oyalar tizimiga bag'ridan joy berdi. Demak, bu davr adabiyoti xalqimiz boshidan kechirgan dolg'ali zamonlar tarixi hamdir. SHunga

¹⁵Косимов Б. Излай-излай топганим. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1983. –Б.162.

qaramay, uzoq yillardan beri saqlanib kelayotgan she'riy san'atlar, fikrni obrazli ifoda etish an'analari bu davr adabiyotida ham saqlanib qoldi. Ibrat ijodida "Chaman ichra" radifli g'azali alohida o'rinn tutadi. Unda tabiat manzarasi, oshiqning ruhiy holati, tongda nola qilgan bulbul xonishi kontarst holda tasvirlanadi. Bularning hammasi uyg'unlashib g'azalning musiqiyligini, jozibadorligini ta'minlagan.

O'shal bulbul qilar afg'on sahar vaqt chaman ichra,

Qo'nar gul deb tikan uzra sahar vaqt chaman ichra.

Bulbulning ertalabki nolasini obrazli ifodalaydi. Ya'ni bulbul ertalab kuylash uchun chamanga keladi va gul deb beixtiyor tikanga qo'nadi. Bir tomondan gulning tarovati unga ilhom bersa, tikanining ozori jonini o'rtaydi. Aslida bulbulning kuylashi yaratgan tomonidan berilgan o'ziga xos ovozi, lekin shoir unga o'zgacha tus beradi.

Qilar bag'rini bulbul qon, tikan uzra beray deb jon,

Bo'lur gul zavqidin qurban sahar vaqt chaman ichra.

Bulbul bu azoblarni tark etib uchib ketay desa gulning ifori, tong shamolida sallonib tebranishi natijasida hesil bo'lgan betakror manzaradan voz kechib keta olmaydi. Qolay desa tikon bag'rini qon qilib, jonih olmoqqa shaylangandek, go'yo. Bu g'az tahlilini amalgal oshirar ekanmiz, unda ifodalangan ikki ma'noni alohida ta'kidlashimiz darkor. Birinchidan, bu an'anaviy oshiq va mahbub holati. Lekin Ibrat ijod qilayotgan bir davrda bu kabi osmoniy tuyg'ular aruz mazmunidan biroz chekingan edi. Ya'ni bulbul millatning umumiy timsoli, gul esa uni o'ziga chorlayotgan ozodlik, hurlik sevgisi edi. Maqsadga erishishning esa turli sinovlari bor. Bu g'azal ham Cho'lponning binafshasiga o'xshaydi. Binafsha -ezilgan millat obrazi.

O'shal bulbul bo'lur dog'lar, chaman ni gasht etib chorlar,

Qizil gulni tilab yig'lar sahar vaqt chaman ichra.

G'azal davomida bulbulning chamandangi guldan judo bo'lganini anglashimiz mumkin. Ya'ni kun kelib bulbul chamanga kelsa, qizil gul yo'q. U yulib tashlangan. Oshiq bulbul zor yig'lab gulini izlaydi, lekin topolmaydi. Suuning uchuh endi saharlari u judo bo'lgan guli- mahbubasi visolini tilab nola chekadi. Ya'ni tutqun millatning erk gulini qidirishi bilan barobardir.

Chiqar bulbulni afg'oni, chaman ichra oqib qoni,

Tasadduq gul uchun joni sahar vaqt chaman ichra.

Afg'on – fig'on chekmoq, nola tortmoqdir. Lirik qahramon bebaaho gulini topa olmagach, sahar chog'i chamanda jon beradi.

Muhabbat birla mast erdi, ani yo'lida jon berdi,

Qizil guldin xabar so'rди sahar vaqt chaman ichra.

Uni bu dunyoda ushlab turgan yagona ilinj - millat taraqqiyoti, milliy mustaqillik, mamlakatning chamanzorga aylanib gullab-yashnashidir. Lekin Ibrat kabi lirik qahramoni ham bu maqsadlarga eta olmadidi. Uni bu maqsad yo'lidan yulib tashladilar. Nolakor bulbul singari u ham mustabid tuzumning qurboni bo'ldi. Bag'ri qon yig'lab bu dunyonи tark etdi.

Muyassar bo'lsa ul jonon, ato qilsa o'shal subhon,

Yo'lida jon qilay qurban sahar vaqt chaman ichra.

Ibrat bu misrada "jonon" sifatini qo'llaydi. Xalqimizda "Jon kuydirmasang jonona qayda" degan ibratli maqol bor. Jonon – hurlik, unga muyassar bo'lishi uchun albatta, jon kuydirish taqazo etilar edi. Ibrat hech ikkilanmay "yo'lida jon qilay qurban" deya she'riy qasam ichdi, va'da berdi. Ming afsuski, buning bu misralari hayotiy kartina kasb etdi. Satrlar muallifi va'daga muvofiq millat ozodligi yo'lida ikkilanmay aziz jonini fido qila oldi.

Ibratiy, bexabar bo'lma, yana g'aflat bila o'lma,

Gunohi beedad qilma sahar vaqt chaman ichra.

G'azal maqta'sida shoir o'ziga tanbeh berib, g'aflatda qolmaslikka chaqiradi. Millat ahvoldidan xabarsiz qolish, uning dardiga darmon izlamaslikni beedad gunoh deb biladi.

Lekin professor B.Qosimov to'g'ri baho bergenidek, "ma'rifatga muhabbat e'lon qilindi", "ishq, husn, xat, xol" singari ta'riflar iste'moldan chiqa boshladi, hatto Vadud Mahmud buni tanqid qilib, eski shoirlarning "ma'yusona qilg'on kufrlari" deya ochiqyozdi.

Ishoqxon To'ra Ibrat zamonida sodir bo'layotgan ijobiy o'zgarishlardan ruhlanadi.

*Ahli Turkiston bu kunda, shukr, beislohemas,
Intishori marifat xattida beimlo emas.*

Boshqalar iddao qilganlaridek, Turkiston ahli beislohemasligini, ya'ni o'lkada qator yangiliklar maydonga kelayotganini faxr bilan qalamga oladi.

*Millatimizda maoriso 'rnig'a vahshat edi,
Madaniyat ta'limin etgay emdi beinsho emas.*

Bir paytlar johillik bor edi, lekin endi madaniyat ta'mini to'liq amalga oshirilayotganidan mammun bo'ladi.

*Bobi kanzi ma'rifat bizlar uchun masdud edi,
Fotihi yo'q erdi fath bobi nusrat vo emas.*

*Ko'rdum «Al-Isloh» jurnolin chiqibdur SHoshdin,
Shukrlar aytdim yo'lindan xalq beparvo emas.*

Toshkent shahrida "Al-Isloh" jurnalni chiqqa boshlaganidan nihoyatda quvonganini bayon etadi.

*Maslakin ko'rdum, shariatdan tajovuz etmagan,
Xalqni isloha targ'ib aylagan badxoh emas.*

"Al-Isloh" jurnalining g'oyasini qo'llab-quvvatlar ekan, xalqni islohgaga chaqirayotgan muxbirlarni millat xizmatchilari deb yuksak nom bilan sharaflaydi.

*Xizmati millat payambarlarni af'oli erur,
Etmasa ummatiga xizmat loyihi dargoh emas.*

*Zimmai olimiga qo'ydi amri ma'ruf amrini,
Soqit etmas Haqning amrin olimi volo emas.*

Xuddi olim kishi oldiga insonlarni yaxshi yo'lga chorlab amri ma'ruf qilish vazifasi shart qilib qo'yilgani kabi, bunday jurnal va gazetalar mutasaddilarining ham muayyan vazifalari borligini eslatadi. Odamlarni va alal oqibat mullatni isloh qilishni Haq amrini bajarish deb tushunadi va tushuntiradi.

*Har zamon ahlina bir fanni rusum o'lg'ay rivoj,
Ul zamon ahlina loyiq so'z demas — dono emas.*

Har bir tarixiy davrning o'z aytar so'zi, amalga oshirajak vazifalari bo'ladi. Ibrat ta'kidlaganidek, o'sha davr ilm-fani, ijtimoiy turmushi taqazosidan kelib chiqib, unga hissa qo'shish darkor. Agar o'sha zamon talabiga mos aytar so'zi bo'lmas ekan — unday odam dono sanalmaydi.

Qaydin olg'aymiz zamoni odamu asri atiq,

Ibrat ol ilm asridur, Kayxusravu Doro emas.

Ibrat savol qo'yadi: bu zamon talabiga mos odamni qaydan topamiz? SHoir she'r finalida yana o'z yakuniy xulosasani bayon etadi. Mana Kayxisrav va Dorolar davri allaqachon o'tib ketgan, endi ilm asri, zamona shiddat bilan rivojlanmoqda. Odamlar bunga tayyor bo'lishlari kerak. Buning uchun yagona najot ilmdir.

Ibrat taxallusidur, ahfodi hazrati Sulton,

SHuhratda Hoji To'ra ma'vosi To'raqo 'rg'on.

Ibrat tilshunoslikka oid "Lug'ati sittati alsina", "Jome' ul-xutut" asarlaridan tashqari "Tarixi Farg'ona", "Tarixi madaniyat" va "Mezon uz-zamon" kabi tarixiy asarlar ham meros qoldirgan.

Avtor
Cherkash
88-01

Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun adabiy matn

Ishoqxon Ibratning "Tarixi Farg'on'a" asridan

XO'QAND SHAHRI BINOSI

Xo'qand shahri Farg'onada bir katta shahar o'lub, islom podshohlarini maqarri saltanati uchun ibtido Xo'qanddan bayon qilinadur. Vajhi tasmiyai Xo'qand budurki, xavoqini Xo'qanddan ul shahar bo'limgan vaqtida Xo'qand o'mi (to'qay) va qamushzod erlar bo'lub, ul vaqtida Chodak xojalari-tojiklar so'rар ekanlar. Ul vaqtida bul to'qaylarda har xil Xo'klar, to'ng'uzlar yurar ekan. Alar erlarni kovlab, har xil ovqat topib er ekanlar, bu jihatdan tojik xojalar kelganda necha erlar kovlagan ekan. Alar bu chuqurlar nima, degan. Kim kovlagan deganda, tojikjavob berib: «Xo'k kand» deganda, ya'ni to'ng'uz kovlagani deganda ul erlarni(ng) ismi «Xo'kkand» bo'lub, xo'k kand aytmoqda qiyin bo'lub, bizni(ng) turkiyda «qof» harfi qaviy uchun Xo'qand bo'lgan, forsiy «kof»ni turkiy «qof»ga badal qilganlar, turkiylar lafzidur. Mana, endi, yana bir badal bo'ldi, ruscha aytmoqda «qof» yo'q (Ko'kand) bo'ldi. SHunga o'xshash harvaqtda, har qabila lisonlari ilan tabodil o'lub, shevalari o'zgargan. Muni ba'zi xo'qandiyyaxshi ta'vil ila Xo'yi qand derlar, ya'ni fe'li-xo'yi qand degan emish. Xo'qand xonlarini(ng) ibtidosi Oltin-beshik deb «Ta'rixi Shohruxiy»da bayon qiladur. Ul vaqtida Xo'qand yo'q, atrofda Tirg'ov degan va Chinkas degan va Sarov qishloqlari bo'lub, Tirg'ovda bir mudabbir kishi bu xalqni(ng) xonzodasi bo'lmasa inqiyod qilmasliklarini bilib, o'shal vaqtida Andijon xonlaridan Boburxon ibn Umarshayxni(hg) Andijondan qochib ketib turgan vaqt ekan. Ul kishi o'z oilasindan bir bachasi va bir marziali g'abiyni necha xil oltun va kumushlar bilan tazyin qilib, aning beshiklarini kimxob va atlaslarga o'rab, Boburxonni(ng) qochub o'tub turgon erig'a maxfiy tashlab, anga posbonlar qo'yub, tofub olmoq uchun bo'lak xalqlarni(ng) miyovana bilmaki lozim. Necha kundan so'ng uch qishloqdin suv ochmoq uchun odamlar chiqqanda hammalari beshikni ko'rub, birdan talash qilib, oxiri ichlaridan birisi chek qilmoq bo'lganda uch taqsim qilib, chek solib, beshik saroyliklarga, yovug'lari chinkatliklarga, bola tirg'ovga tushganda, har qaysilari o'z cheklariga tushgan nimarsalarni olib ketib, bolani

tirg'ovaliklar tarbiyat qilib, ani(ng) otini Oltun beshik deb, andin necha qarn o'tub avvali to'qquz yuz o'n to'qqizinchи hijriydan Oltun beshikdan Shohruxxon o'rtasi ikki yuz yildan ziyodaroq o'tub, o'n ato bilan bir ming bir yuz yigirmanchi sanasi Shohruxxon julus etib, mufassal yozilib kelgan ta'rixlari ham bor edi. Taxtgohlari Xo'qand shahri bo'lub, mazkur nasldan yigirma sakkiz zot taxtga o'lturub, SHahrixon dan yuqorisi biy isminda, andin quyisi xon ismini olimishdurlar. Bularni(ng) oxiri Xudoyorxon o'lub, ani aqabinda bir-ikki zoti besabot xon ismini ko'torub, 1292-nchi sana Xo'qand shahri Rusiya davlatiga o'tgandan so'ng biri ma'zul va bir necha kundan so'ng biri maqtul 1293-nchi sanasinda xon ismi Farg'onadan ma'dum va davlatlari noma'lum o'lub, jam'i hukumatlari uch yuz etmish to'rt yilga etkandur. Bu Oltun beshikni(ng) xalqga xonzoda ekanin ravshan qilmoqda necha ilova so'zlar qo'shulub, bolani(ng) boshida bulut soya qilgan ekan, kiyik emizub turgan ekan va qush soya solgan ekan, deb xalqni(ng) qulog'ig'a o'matub, to angacha yigit bo'lub, hurmati va ehsoni ziyoda bo'lub, xushaxloq va xushmuruvvat bo'lsa ham Tirg'ova qishlog'idan bo'lak xalq inqiyod qilmay, har qaysi jamoada bir biy bo'lub kelsa ham, Oltun beshikni(ng) biylig'i shuhratliroq bo'lub, mundan olti avlod bu suratda o'tub, ettinchi avlodiga kelganda bul kishi boniyi Xo'qand bo'lub, Shahmastbiy ismmini xon laqabiga chiqorub, nihoyatda so'zi nufuzli bo'lub, xon ismini rivojlatib, Shohruxxon deb shuhrat tofgan ekan. Mundin muqaddam ixtilof etsalar ham Shohruxxon asrida xonlik shuhrati butun bo'lub, Xo'qand poytaxt o'lub, o'zidan hazrati Odamg'acha nasabini isbot qilub, muassisasi saltahat bo'lub, ajdodi xavoqini Xo'qand katta muaassai tibyon bo'lgan ekan. Shohruxxon ming bir yuz yigirmada taxtga o'lturub, komil o'n ikki yil podshohlik qilib, o'n uchinchi yili vafot etgan. Abdurahimbek, Abdulkarim isminda SHodibek degan uch o'g'li bo'lub, otasi masnadida Abdurahimbek julus etib, bul ham o'n ikki yil xonlik qilib, ming bir yuz qirq oltinchi hijriyda vafot bo'lub, birodari Abdulkarimbek taxtga o'lturub, bul o'n sakkiz yil xonlik qildi. Bul ham bir ming bir yuz oltmish to'rtinchi yilda vafot bo'ldi. O'g'li Abdurahmon joyina o'turdi. To'quz oy zarfinda bul ham chiqorilub, o'mig'a amakibachchasi Erdonaxon ibn Abdulkarimxon julus etdi. Abdurahmonxonni Marg'inonda hokim qo'ydi.

Bir sanadan so'ng Erdonaxonni ham chiqorilub, o'mina Bobobek ibn Abdurahimxon o'turdi. Biryil ichinda Bobobek qatl qilinub, Erdonaxon ikkinchi xonlik taxtina o'turdi. Bir yil ilajam'i o'n ikki yil julus etub, bir ming bir yuz etmish oltinchi sanasi vafot etdi. Ba'dahu jamoai sardiyya va o'zbakiya jam' bo'lub dedilarki, Shohruxxonning ikki o'g'li Abdulkarimxon, Abdurahimxonlarning navbat o'tub, uchunchi o'g'li SHodibekka etdi, bunihaqidur, deb 1177 yili Sulaymonbek ibn Shodibekni xon ko'tarub, olti oy bayninda azl vaba'dahu qatl etildi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Asar nega "Tarixi Farg'ona" deb nomlangan?
2. Ibrat qalamga olgan tarixiy shaxslar haqida ma'lumot bilasizmi?
3. Ibrat uchun tarixiy asar yaratish zarurati nega kerak bo'ldi deb o'ylaysiz?
4. Asarning to'liq variantini o'qib chiqdingizmi?
5. Tarixiy asar yaratishning murakkabligi nimalarda deb o'ylaysiz?
6. Asarda siz uchun noma'lum so'zlarni uchratdingizmi?
7. Asardagi tarixiy so'zlarga beshta misol aytинг va ularning bugungi kundagi ma'nosini izohlangu.
8. Ibrat asarlarining ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
9. Asar necha yillik tarixni qamrab olgan?
10. Ibratning ushbu asari yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlardan xabardormisiz?
11. Asarda uchragan arab, fors tilidan o'zlashgan so'zlarni ajratib yozing, ma'nosini izohlangu.
12. Asarda keltirilgan tarixiy shaxslar kimlar va nega muallif ularning nomi bilan bog'liq xronikalarni bayon etgan?

Tarixi Andijon.

Andijon lafzi asli Andigon bo'lsa kerak. Bu Forsistondan qo'shulgondur. Chunonchi, «bandigon» yoki «mardigon» degandek, forsiyda «gon» - «lar» o'mida, «mardlar» yoki «ozodagon» — «ozodalar». degan so'zdek, «Andigon» — «andilar», degan so'z. «And» turkurug'ini(ng) o'zbeklarini aytur. Bul ham forsiylar tarafidin aytilgon bo'lib, asli Andijonforsiylar, ya'ni eroniylar qo'liga o'tmasdan avval ham bor edi. Chunonchi, tarixi «Qutadg'ubilik»da yozibdurki, O'g'uzxonning Hindustong'a yurgonining zikrida aytur. O'g'uzxon tamomilashkari mo'g'ullar ilan Talas va Saryom keldi. Toshkand va Samarcand va Buxoro podshohlarisaf tortib urusha bilmaydilar. Ulug' shahar va mahkam qal'alarga berkindilar. O'g'uzxon Toshkand va Saryomni o'zi qamab oldi. Turkiston va Andijong'a o'g'lonlarini yubordi. Onlar 6oyda Turkiston birlan Andijonni olub, atosi xizrnatig'a keldilar, deydur. Ya'ni O'g'uzxon zamona Andijon shahar ekan. Bu ism ila maslikhur ekan. O'g'uzxon Bo'quxonni(ng) sakkizinch bobosidur. Ya'ni Bo'quxon Afrosiyobni(ng) mo'g'ulcha ismidir. Afrosiyob laqabifarran osiyo degan so'zdur. Farg'onani Afrosiyob bino qildi. Farg'oriadan avval Qubo binobo'ldi, Qubodni(ng) vaqtida. Ammoki Andijonni(ng) qaysi podshohni(ng) binosi ekanligigamo tamad tarix va ma'lumotirizh bo'limgandan bul tarixlarg'a iktifo qilindi. Tarixi «Qutadg'u dan mustafod bo'lurki, Andijon to'rt ming yildan muqaddam, ya'ni O'g'uzxon vaqtida shahar bo'lsa, andan avval ham obodon shahar ekan. O'g'uzxon hazrati Nuhalayhissalomni(ng) to'qquzunchi o'g'illaridur. Valhosilki, Andijon Farg'ona shaharlariichinda eng avvalgi va qadimiydur. Andin Afrosiyob vaqtiga kelganda, Afrosiyob Turonpotshohi bo'lib, Andijonni poytaxt qilib, Ko'nikdar shahridin goho Toshkand va Andijonkelur ekan. Ammoki, afvohi nosda qariyalar so'zidurki, Andijon asli Odinajondur. Odinajon Afrosiyobni(ng) qizidurki, anga o'rda va bog' bino qilib berib, ani(ng) ismigatasmiya qilib edi. Odinajonni tilda buzub, ag'loti avom ila Andijon qilgan, deyurlar. Barhar bob bir eski shahar bo'lub, necha martaba buzulub, yana obod bo'lub, taboduli zamon vainqilobi ovon ilan tuzalub, buzulub, obod bo'lgan eski shahardur. Amrhoki, «Tarixifarishta»da yozilibdurki, Umarshayx o'g'li Boburxon Andijonga sakkiz, yuz to'qson

to‘qquzunchihijriyda o‘n ikki yoshida podshoh bo‘ldi. Tarixi valodatiga shul tariqa nazm qilibdur. Nazm:

Andar shashi muharram, zod on shahi mukarram,

Tarixi mavlidash ham omad «shashi muharram»79.

Ammoki, Umarshayx Mirzo dushanba kuni 14-muharram ramazonda 899 hijriydakabutarxona tomidan yiqilib marhum o‘ldilar. Bobur Mirzo baittifoqi umaro podshoh bo‘ldi.Ul vaqtida Aksi podshohi Uzun Hasan podshoh edi. Ammo Farg‘onada Hasan Ya’qub podshoh edi,deydur.1030 hijriydagи zilzilada Axsikent buzulgan. Zilzilada Andijon ham buzulgan edi. YAnaandin buyon Rusiya tasarrufiga o‘tgandan so‘ng tezroq obodlikka qadam qo‘ygan ediki, 1316hijriyda bo‘lgan zilzila hammani(ng) ma’lumidur. Anda yana zilzila bo‘lub, buzulub,hukumatdan imdodlar bo‘lib, avvalgidan necha daraja obod bo‘lgan. Mundan avvalgi obodliknibilmak bo‘lgan kishi «Boburnoma» tarixini ko‘rsa bo‘lur. Erlarini(ng) hosildorligi,sanoatlari hammasi Farg‘ona bobida yozilib o‘tdi, takrorga hojat ko‘rulmadi. Binobarin,so‘zimiz tatvil etmay, qanoat etduk.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. “Boburnoma” va “Tarixi Farg‘ona” asarlarini qiyoslang.
2. Andijon atamasining kelib chiqishi haqida yana qanday ma’lumotlarni bilasiz?
3. Andijon shahri tarixiga oid boshqa manbalardan xabardormisiz?

Ta’rxi Namangon

Namangon yangilik jihatidanmu yoki biz ahli islom diniy kitoblarga ahamiyat berub,tarixlarga ahamiyat yo‘qligi sabab, bu Namangonga hech kim ravshan tarix qilmagan ekan. Busababdan bir kitob ko‘rilmaydur. Qariyalar og‘izdan-og‘iz eshitilub, haddi tavoturga etub,bayonida bo‘lak qilu qol bo‘lmay, hammani masmu‘i bo‘lgan ravshan so‘zlar ilan ado qilinadur.⁷⁹ Muharramning oltisida o‘shal shoh mukarram bo‘ldi, Tug‘ilish yili ham «shashi muharram» (muharramning oltisi) bo‘ldi.«Shashi muharram»dan abjad bo‘yicha Boburning tug‘ilgan yili chiqadi.

Chunonchi, bu Namangon asli namangon emasdur. Forsiy lafzi birla namakon — namak kondur.

Muni(ng) ma’nisi shul ekanki, bizni Chig‘atoy tilida asli gon yo‘q, bu shevai forsiydur.Chig‘atoya «kon» yoki «g‘on» yo «qon» bo‘ladur. Bu lafzi «gon» «kon»ni oson qilib, «gon» deydur.Yoki forsiylar ixtiloti va ham bu boniy lafzi forsiy uchun «gon» deb mashhur va bu lafzdamazkur bo‘ddi. CHunonchi, Namangon avvali holda, ya’ni mundan to‘qqiz yuz yil ilgari erlarda hechkim bo‘lmay yotgan biyobon — ko‘ltuz bo‘lub, ul vaqtida Buxoro xonlarindan Abdullohxon bu Farg‘ona taraflariga kelib, har erga goh sardobalar kavlab, saqqoyi mo‘mininga chohlarni(ng)tепасига gumbazlar qilib, ko‘b xalqg‘a naflik ishlarni qilgan xon ekan. Ul kishi bull Namangonni(ng) eriga kelib, alholda sardoba degan madrasa bordur, bir chust va bir aminlikmahalladur, ul erga tushub, darhol sardoba kavlatib, necha kunlar turub, bir tarafi daryo va birtaraf tog‘ havosi yaxshi uchun bu erga bir shahar bino qilmoq bo‘lub, o‘z ichlaridan bir og‘oliqmansabida turgan kishini amr qilib, shahar qilmoq bo‘lganda, o‘shal erni(ng) daryo tarafi butunsho‘r ko‘l bo‘lub yotgan tuz ekan. Binobarin, namak kon deb, ya’ni tuz kon deb atagan ekan. Bu namakkon lafzini forsiyda «gon» qilib yozub, namak-konni namangon deb, bir «mun»i zoida ilanNamangon bo‘ldi, asli namakkondur.Namangon ta’rxi Abdullohxon tarixidur. Abdullohxonni(ng) tarixi «zamona xarob»dur,ya’ni to‘qquz yuz oltinchi hijriyda bo‘lubdur. Bu Namangon to‘rt mahalla bo‘lub, birinchimahalla Sardoba mahallasidurki, avvali Abdulloh sardoba bino qilgan eridur. Ikkinchimahallasi Labbaytag‘odurki, ani vajhi tasmiyasi mulla Bozor oxund degan kishi bor ekanlar,ul

kishini bir jiyanlari bor ekan.Har ikki aziz o'rtalari ovoz etadurgon masofat ekan. Goho jiyanlarini chaqirganlaridajavoban tag'olariga «labbay, tag'o» deb ovoz bergenlarida, aksar kishilar ul mahallani «labbaytag'o» mahallasi deb atab «labbaytag'o» musammo bo'lgan bir mahalladur. Bir mahallasini «Chuqur ko'cha» derlarki, ul Namangonni(ng) hamma ko'chasidin chuqurroq uchun Chuqurko'cha tasmiyabo'lgan. Va bir mahallasi Degrezlikdurki, ul hamma shaharlarda bor bir jamaoa qazonquyadurgonlar kelib joylangan mahalladur. Namangonni(ng) binosiga to'rt yuz yigirma ettiyil, bul tarixdan o'tmagan bo'lsa ham, tezda obod bo'lub, avliyoyi kirom va mashoyixi izomlarbirlan mamlu bir shahar o'lub, bulardan suluki aloniyada murshid bo'lgan Anjir Fag'naviy Namangondadurlar. Mulla Bozor Oxund ham Namangonda madfundurlar. Mashrab avliyon(ng)hovlisi, tug'ulgan eri mahalli maxsusdur. Mashoyixi kiromlar zikrlarin munda qilmoqbo'lindi. Umr musoada qilsa, inshoollo, alohida manoqib qilinur.Bu Namangon atrofida bo'lgan qasabolari ijmolan yozmoq lozim bo'ldi. Bularidan Namangonni(ng) g'arbida bir bozorlik qasaba bu muallif vatani asliysidurki, muni Dashtiqipchoq xonlaridan Ahmadxon, ya'ni SHig'ayxon bino qilgan ekan. Ul vaqt muarrixlari Ahmadxon ismiga qal'a qilib, Qal'ayi xon deb ism qo'yub, bu lafz binosiga ta'rix bo'lganekan, 851 hijriyda bino bo'lgan ekan. Avvali vaqlarda binosidin to Rusiya davlatiga o'tguncha,bul Namangonni maqarri hukumat poytaxti To'raqo'rg'on bo'lib, eskiligi va ham havo jihatidinislom hukumatdorlari bu emi o'rda, qo'rg'onlar qilib, askari islomni(ng) vatan va maqarriedi. Ammoki To'raqo'rg'on deb mashhur bo'lmog'i boniy Shig'ayxonni(ng) Ya'qub to'ra va Yusuf to'radegan ikki o'g'li. Bu qal'a xonga qo'rg'on qilgan jihatdin To'raqo'rg'on deb nisbat bo'lgan. Aslismi Qal'ai xondur, turkiysi — To'raqo'rg'on.

Ammoki, bul o'rda ichinda taba'alardan Shoh Abdulvahhab degan kishi madfundurlar.Birlari Namangonga chiqadurgon ko'cha og'zida yotibdurlar. Ul kishi ismlari SHoh Abdulazizdur.Har ikki azizlar Koson urushida kelib, bul erda shahid qilgan ekan. Alholda har ikki aziznilaqablari ila zikr qilinur. Birlarini Qarovul ato va birlarini Falosbon ato derlar.Qarovul ato o'rda ichinda, Falosbon ato ko'cha og'zidadur. Yana birlari Mirishkor ato derlar.To'raqo'rg'oni(ng) janubida to'rt

chaqirim erda biyobonda madfundurlar. Bul azizlar 94hijriydagি Jarir ibn Abdullohni(ng) mo'g'ullar ilan qilgan urushida shahid bo'lq'onarablardurlar. Bu Namangonni(ng) hokimiga qarashli to'rt qasabot o'lib, To'raqo'rg'on, Chust va Chahortoq, Koson degan yerlar bo'lub, har biri bir beklik yer edi. Namangonda Xo'qanddanqo'yiladurgon bek xavoqini Xo'qandning eng katta beklariga bu o'run berilur edi. Na uchunki,avvali maqarri xonon va poytaxtligi sababdan muni mo"tamad va jasur kishiga berilur edi.

Rusiya davlatiga o'tgandan so'ng shahar butun Namangon bo'lub, hokimlar ham, askariya ham Namangonga naql qilirub, To'raqo'rg'on bo'lustlik qishloq bo'lub qoldi. Alholda ul qo'rg'onxabar va o'rdadan asar qolmay, taboduli davron va inqilobi ovon bo'lub qoldi.To'raqo'rg'onda ikki xishtin madrasa, bir hammom, to'rt paxta zovud, o'n beshdan ziyoda paxtasarov bo'lub, o'rtasidan Koson soyi o'tadur. Suvi toza va havosi pokiza bir qasabadurki,yigirma ming nufusi bordur. Vassalom! Tahrir va tasvidi Ibratdan, 1333 hijriyda. Ya'ni muallif dastqalami iladurki, 1916milodiy.

Keldi boshimga yaxshi bir ovon,

Mango tayfiq yarotib Subhon.

Erdi Farg'ona tarixi shug'lim,

Ta'lif ettim kelib mango davron.

Ismi tasnifig'a bo'lub ta'rix,

Bekamu ko'st lafzi bu «Farg'on».

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Namangan tarixi bilan bog'liq qanday ma'lumotlardan xabardor bo'ldingiz?
2. Asar tili haqida fikr bildiring.
3. Asarda keltirilgan she'riy parchalar qaysi janrga mansub?
4. Asar yakunida keltirilgan "ta'rix" san'ati bilan bog'liq muammoni mustaqil echishga harakat qiling.

MILLATNI KIM ISLOH ETAR? (MAQOLA)

Biz Turkiston musulmonlari orasinda xilofi shariat odatlarini ko'pligi har kimg'ama'lumdir. Muning daf'i va islohini kim etar? Bizni fikrimizcha, muning daf'u islohog'aulamo hazaroti kamari himmat bog'lab, muqaddas mehrobu minbardan va'z so'y lab, aholig'aahkomi shariatni bildurub, baytulloh hukmindagi masjid va jome'larida erta-yu kech amri ba ma'ruf va nahy az munkar etib, xaloyiq anglayturgon bir til ilan pandu nasihat etsalar hammuning hech qo'ymasdan har kun ba'd az namozi fajr va ba'd az xufton doim muxtalifmavzu'lardan babs etsalar, albatta, ta'sirsiz qolmas. Xususan, muqaddas masjidg'a so'y laganova'z har bir mo'min qalbina du bolo ta'sir etar. Qur'oni karim amri ma'ruf va nahyi munkar etmoq uchun mav'izan pandu nasihat uchun ko'poyatlar borligi ulamo hazarotlarig'a ma'lumdir. Olami islonini har tarafidagi masjidlarda xalq tili ilan va'zu pand etmoq joriyidir. Yolg'iz Turkiston va Buxorog'a, bilmayman, na sababdan joriy emas. Oningchun xalqni axloquodobi isloniyasi kundan-kun buzilmoqda. Ori, bizni masjidda «saloti Mas'udiy»ni bechoraavom anglamaydut. Zotan, oti imomlarni o'zları o'qimoqlari lozim. Loaqal, mazmunini avomg'atushundurmoq kerak. Holbuki, xaloyiqg'a zarurroq, kerakdur. Bugun ko'paygan buzuklik vafasodlarni islohi uchun va'z qilmoq kerak. Zaruriyoti diniya va axloqi isloniyani alarg'a ta'lim va tanbeh qilmoq kerakdur. Ba'zan namozi fajrdan so'ngra masjidg'a omi gadoylarg'azal o'qib, xurofot so'y lab, va'z aytgan bo'lub sadaqa jamlar. Besavod bir gadoy og'zig'akelganini imom afandi huzurinda bermuhobo so'ylar. Hech kim anga bir nima demas. Holbuki, masjid ichinda gadoylik va sadaqa durust yo'q edi. Imom afandilar masjidda va'z aystsalar, xaloyiqni bilmaganini bildursalar, albatta, izzatu hurmatlarida ziyoda bo'lur. Xaloyiqdaisloh topilur, dunyovu oxiratda ajrlari ham ziyoda bo'lur. Zotah, ulamo hazrotiki, varasat ul-anbiyodurlar, vazifalari ta'limu hidoyati xalqullohdur. Kuntum xayra ummatin uxrijat lin-nasi ta'muruna bil-ma'rifi va tanhavna anil-munkar, 'ulamau ummatiy kaanbiyai baniIsroi oyat va hadislarining sha'ni shudur. Sobiq «Samarqand» jaridasi va «Oyna»da ham bir necha daf'a mundan babs bo'lub edi. Alhamdulillahki, idorag'a yaqinda xabar olindiki, Samarqandni Xojajon Xojamahallasining imomi muhtaram domla Hoji Abdug'affor janoblari bir

necha kundan berixalq tili ilan ba'd az namoz va'zi pandu nasihatg'a boshlabdurlar. Namozguzorlar niyoyat roziemishlar va adadlari ham ko'payibdur. Va'zlarida ta'sirini oz bir muddatda ko'rsatibdur. Alloh taolo bu imom amsolini ko'paytirsun. Domla Abdulg'affor janoblari bir necha sanalarHarami muhtarami Nabaviy hazratlarining Samarqandda bu amri lozimni boshlaganlari uchuntabrik etarmiz. Ori, ulamo qavmidindurlar. Ulamo g'ayrat etkanda millat, albatta, islohotpur.

"Oyna", 1914, 12-son, 274 — 275-betlar

FSMU texnologiyasi asosida ishlashi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Savol	Ibrat g'azallaridan 3 tasini badiiy tahlil qiling. An'ana va yangilikni ajratib ko'rsating
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashti-ring	

2-guruh

Savol	Ibratning tarixiy asarlarini sanang. Uning tarixnavislik mahoratini 3 ta misol bilan asoslang
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ishoqxon Ibrat publitsistikasining asosiy xususiyatlari to‘g‘risida fikr bildiring.
2. Ibratning boshqa publitsistik maqolalarini o‘qiganmisiz? Muallif ko‘targan ijtimoiy-siyosiy masalalar ko‘lamni haqida gapiring.
3. Publitsistik qanday muammoni jamiyat a’zolari hukmiga havola etgan.
4. Ibratning publitsistik mahorati haqida zamondoshlari maqolalari bilan qiyoslagan holda fikr bildiring.
5. O’sha davr nuqtai nazaridan ushbu maqolaning ahamiyatiga baho bering.

XULOSA

Ishoqxon Ibrat hayoti va faoliyatini o‘rganish muammosini tadqiqetish jarayonida quyidagi asosiy xulosalarga keldik:

1. Ijtimoiy hayotdagи tanazzullar, jaholat va mustamlakachilik zulmi ta’sirida ezilgan millat kayfiyati bevosita adabiy asar tabiatiga singdira boshlandi. Bu esa adabiyotning reallashuviga olib keldi. Qolaversa, Ishoqxon Ibrat hayoti va ijodida ham bu kabi o‘zgarishlar sezilarli iz qoldirdi. Iste’dodli shoir, olim va jurnalist sifatida milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotiga samarali hissa qo’shdi.
2. Real voqelikning aks ettirilishi, jamiyat dardiga ma’rifat orqali davo istash kabi muammolar talqini an’naviy obrazlar ko‘lamini bir qadar toraytirdi. Ya’ni Ibrat asarlarida ham an’naviy obrazlar o‘miga millat, hurlik, ma’rifat g‘oyalari keng o‘rin egalladi. Uning aruz vaznida bitilgan g‘azallarida ham mumtoz g‘azallarda ta’riflangan mahbuba obrazi millat, vatan, mакtab, ifson kabi tushunchalar bilan almashib bordi. Ijtimoiy ma’no yangilik sifatida kirib kelishiga qaramasdan, an’naviy obrazlar ham saqlanib qoldi. Lekin estetik mukammallikning etuk namunasi hisoblangan obrazlarga ham ichki ruhiy tiynat, aqlu zakovat talabi kuchaydi.
3. Yangilanayotgan fikrlash tarzi bois, eski an’naviy adabiyot endi o‘quvchini qoniqtirmay qo‘ydi. Buni yaxshi anglagan millatparvar shoir asarlarida jaholatni qattiq qoraladi. Jamiyat boshiga tushgan bemisл ko‘rguliklar sababi qidirilayotganda, turmushdagi qoloqliklar bilan birga adabiyotdagi taqlidchilik muammosi ham qayta tekshirila boshlandi.
4. Ishoqxon Ibrat shoir sifatida zamon talabiga mos asarlar, she’rlar yozdi. Maqolalarida millat manfaatini himoya qilib, qator takliflar bilan dadil chiqdi. Mazmun o‘zgarishi badiiy asarning shakl va mundarijasiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Vazn yangilanishi, asar tilidagi muayyan o‘zgarishlar bu davr adabiyoti uchun xos bo‘lib, u avvalo tarixiy jarayonning talabi, qolaversa, umumturkiy millatlar bilan madaniy aloqalarning rivojlanishi bilan izohlanadi.
5. Adabiyotning asl vazifasi insonni tasvirlash orqali ijtimoiy turmushga nazar tashlash, uni emirayotgan muammolarga javob topish yo‘li bilan jamiyatni islohqilish

lozim degan qarashlar darajasiga eta bordi. Quruq da'vatkorlik yo'li bilan ongni, millatni, adabiyotni takomillashtirish mushkul ekanligi anglashila bordi.

Jadid she'riyatidagi yangilanish dastlab an'anaviy aruz janrida namoyon bo'ldi. Jadidchilik uchun zamin hozirlagan g'oyaviy ko'tarilish dastlab ma'rifatparvarlar ijodida ko'zga tashlandi. Ma'rifatli, haq-huquqini tanigan ziyyoli ayollar obraz sheriyatga kirib keldi. Avvalo, Dilshodi Barno, Anbar Otin ijodida aks etgan bu kabi g'oyalar keyinchalik Ibrat, Tavallo, So'fizoda, Hamza, Cho'lpon ijodida yanada rivojlantirildi. XX asrning 20-yillariga qadar yaratilgan she'riy asarlarda ham ilm-ma'rifat konsepsiysi o'z barqarorligini yo'qotmadi.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2017 йил 7-8 июль кунлари Наманган вилоятига ташрифи давомида сўзлаган нутки.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тўғрисида қарори. // Халқ сўзи, 2017 йил 21 апрель
3. Каримов И. А. Адабиётга эътибор –маънавиятта, келажакка эътибор. –Т.: Ўзбекистон, 2009. –40 б.
4. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Т: O'zbekiston, 2008. –536 б.
5. Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи (1870-2000). – Т.:Академия, 2002. –192 б.
6. Абдуллаев О. Туркистоннинг ўтган кунлари. –Т.: Ўқитувчи, 2002.–96 б.
7. Абдурашидхонов Мунавварқори Хотираларимдан. /Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи С. Холбоев –Т.: Шарқ, 2001. –128 б.
8. Акопова А. Эстетический идеал и природа обрásа. –Ереван, Гитутюн НАНР, 1994.-
9. Аристотель. Поэтика. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1980. –149 б.
10. Адабиёт –руҳият мулки. –Т.: Адабиёт ва санъат, 2000. –96 б.
11. Балдауф И. XX аср ўзбек адабиётига чизгилар. –Т.:Маънавият, 2001. –72 б.
12. Жалолов А. XIX аср охири XX аср бошларида ўзбек адабиёти. –Т.:Фан, 1978. –155 б.
13. Сайдов У. Европа маърифатчилиги ва миллий уйгониш. – Т.:Академия,2004. –103 б.
- 14.Столович Л. Н. Природа эстетической ценности. –М.:Политиздат, 1972.– 271с.
- 15.Страницы Азербайджанско-узбекских литературных связей. Ан. Азерб. Иност. Литературы имени Низами. –Баку: Элм, 1985. -280 с.

16. Такташ Hadi. –Янытурмуш жырчысы(фэнни конференция материаллари). –Казань:Казанск. ун-т, 1982. –162 с.
17. Турдиев Ш. Ҳаётбахш таъсирлар. –Т.:Адабиёт ва санъат, 1977. –107 б.
18. Турдиев Ш. Адабий ҳамкорлик самарааси.–Т.:Адабиёт ва санъат, 1984. –128 б.
19. Исҳоқхон Тўра Ибрат. Таъланган асарлар (Нашрга тайёрловчилар, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари У. Долимов, Н. Жабборов). –Т.:Маънавият, 2005.
20. Долимов У. Исҳоқхон Ибрат. –Т.: Шарқ, 1994.
21. Қосимов Б. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври адабиёти. –Т.:Маънавият 2004 й.

Glossariylar

Arxeografiya – yozma manbalarni qidirib topish, ilk tavsifga olish, ilmiy muomalaga kiritishni nazarda tutadi. Kutubxona, turli fondlardagi qo'lyozmalarning turkumlashtirilgan tavsifi, arxeografik qiyoysiyl tahlili manba matnini tuzishda muhim hisoblanadi. Bunday ishlar natijalari matn ustida ishlashning ravon боришини ta'minlaydi.

Germenevтика – qadimgi yozma matnlar mazmunini izohlash bilan shug'ullanadi, matnshunoslik uchun germenevтика asarning qadimda tutgan о'mi, asar umumiyligi mazmuni kabi ma'lumotlarni beradi.

Manba – arabcha "oqib chiqmoq", "bosylanmoq", "otilib chiqmoq", "kelib chiqmoq" ма'nolarini anglatuvchi *naba'a* (نباع) fe'lidan "oqib chiqish joyi", "boshanish nuqtasi" "buloq" ма'nosidagi *manba* (منبع) so'zi yasalgan. Har qanday harakat, voqeа-hodisaning boshlang'ich nuqtasi, avvali, boshiga nisbatan qo'llangan bu so'z ma'lum soha kishilarining ixtiyoriga binoan ijod mahsuli tushunchasida qarorlashdi va "manba" deyilganida muayyan *asar* (kitob) tushunila boshladi. Mutolaa qilingan kitob о'z о'quvchilarida turli xil о'xhash va farqli fikrlarni uyg'otadi. Fikrlarning о'xhashligi *qarashlarni*, farqliliqi *yondashuvlarni* yuzaga keltiradi. Bu jarayon bamisolai kitobdan kitoblar otilib chiqayotgan, asardan asarlar tarmoqlanib, toshib oqayotgan oqimga о'xshaydi.

Matn – arabcha izohli lug'atlarda bu so'z "narsaning ustki, yuza qismi" deb ta'riflangan. Masalan, eming ustki qattiq qismi (متن الأرض), yo'lning о'rtasi (الطريق), kitob sahifasidagi yozuvlarning hoshiya va sharhlardan xoli asosiy qismi¹⁶ (متن الكتاب) *matn* so'zi bilan ifodalangan. SHunindek, bu so'zning "mustahkam; pishiq" kabi sifat ma'nobsida kelgan turi ham mavjud. Tilimizga о'zlashgan *matonat*, *metin* so'zleri ham *matn* bilan о'zakdoshdir. "Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati"da tekst so'zi "avtorning asl so'zi, asarning qo'lyozmasi yoki nashr etilgan nusxasi"¹⁷, "Slovar-spravochnik lingvisticheskix terminov" kitobida "yozuv yoki nashrda aks

¹⁶Кадимий (қўлезма ва бозсан тошбосма) китобларда асл матн ёшлия билан ажратилган. Матн шархларидан ёшлиядга гар яланасига битилган. Бу ўринда шу ёхлат назарда тутиляпти.

¹⁷Хомидий X., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. "Ўқитувчи", Т. 1970, 222-бет.

ettirilgan nutqiy asar (bayon qilish”)¹⁸, “Hozirgi o’zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati”da “matn – mazmunan va mantiqan o’zaro aloqador bo‘lgan gaplar yoki alohida olingan gap”¹⁹, “Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da “matn – yonmayon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi; tekst”²⁰ tarzida turlicha ifodalangan. Matn bilan teng ma’noda qo’llanadigan *tekst* so‘zi lotincha *textus* so‘zidan olingan bo‘lib, “to‘qima mato; to‘qish; o‘rish; chirmash; qo‘sish” kabi ma’nolarni anglatadi. Bu so‘zning nisbatan kengroq va qamrovli izohini 2010 yil “Akademnashr” nashriyotida chop etilgan “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da ko‘rish mumkin.

Matn tarixi – muayyan matnning paydo bo‘lishidan to oxirigi holatigacha davom etgan jarayon matn tarixini tashkil qiladi. Aksar matnlar ma’lum vaqt mobaynida sub’ektiv (muallif, kotib, nashrga tayyorlovchi, muharrir) va ob’ektiv (ijtimoiy) omillar ta’sirida o‘zgarishga uchraydi. Matnshunosning vazifasi mana shu o‘zgarishlami aniqlash, ularni tarixiy, ilmiy dalillar bilan asoslash va shu yo‘l bilan asl matnni tiklashdir.

Odob – “adab” so‘zining ko‘plik shakli (ادب). Mumtoz adabiyotda “adab”ning ko‘pligi sifatida qo’llanadi. Undan tashqari “odob” so‘zi inson faoliyatining ayrim sohalariga oid qoidalar va ularga rioya qilish ma’nosida ham ishlataladi.

Tekst- yozuvda qayd etib qo‘ylgan nutq. Termin bu ma’nosida og‘zaki nutqqa qarshi qo‘yiladi; nutqiy asar, jumladan, adabiy asarning yozma (harflar) yoki og‘zaki (tovushlar) belgilar vositasida qayd etilgan konkret-hissiy (ko‘rish yo eshitish) qabul qilinadigan tomoni. Bu ma’nodagi *tekst* matnshunoslikning ob’ekti sanaladi; nutqiy kommunikatsiyaning nisbiy butunlik, yaxlitlik kasb etgan va nisbiy avtonomlik, alohidalik xususiyatiga ega eng kichik birligi, ya’ni adabiy-badiiy asar. Bu ma’nodagi *tekstning* mazmuni uni tashkil qilayotgan nutq birliklari, ularning o’zaro aloqalari bilangina cheklanib qolmaydi. Butun sifatida u muallif tomonidan muayyan nutqiy

situatsiyada tug‘ilgan, uning butun sifatidagi mazmun-mohiyati o‘zidan tashqaridagi reallik bilan bog‘liq holda voqe bo‘ladi”²¹.

Ta’sirlar zanjiri – Ma’lum adabiy asar bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan manbashunos o‘zi o‘rganayotgan ob’ektning yaxlit butunlik sifatida yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan *ta’sirlar zanjirini* tiklaydi, tadqiq etilayotgan asarning bu silsiladagi o‘mini belgilaydi, xalqalar orasidagi munosabatlarning umumiylarini aniqlaydi. Manbashunoslik tadqiqi mana shu uzluksiz jarayon ichida kechadi.

Ekzegetika – diniy matnlarni filologik jihatdan tahlil etishda matnshunoslik ishlari bilan bevosita bog‘lanadi.

Piktografik yozuv – o‘z ramziy timsoliga ega har bir so‘zning predmetni to‘g‘ridan-to‘g‘ri rasm orqali ko‘rsatishi.

Ideografik yozuv – so‘zning ma’nosining tushuncha orqali ifodalanishi.

Ieroglifik yozuv – logografik yozuvning rivojlangan, mukammal ko‘rinishi.

Litografiya (toshbosma) – yassi chop etish, ya’ni matn oldindan qog‘oz varag‘iga bitilgan va tosh shaklga teskarisi tushirilgan aksdan nusxa ko‘chirish usuli. Toshbosma usulda dastlabki, asosiy ishni xattot bajargan. Xattot bosiladigan kitobning matnini maxsus qog‘ozga ko‘chirgan. Bu qog‘ozdagи matn tosh qolip sirtiga o’tkazilgan va unga kimyoviy ishlov berilgan. So‘ngra ana shu tosh qoliplardan nusxalar olingan. Xattot toshbosmaga matn ko‘chirganda asosan nasta’liq xatidan foydalangan.

Mixbosma (tipografik) – mix shaklidagi metall harflarni qo‘lda terish orqali kitob bosilishi. Bunda arab yozuvining nasx yozuvidan keng foydalananilgan.

Epitafiya – qabrtoshga yozilgan bitik (adabiyotda to‘plamdan joy olgan mo‘‘jaz she’r).

Interpolyasiya – hoshiyadagi bitiklarning asosiy matnga qo‘sib yuborilishi. Matnshunos asosiy matnning o‘ziga xos uslubi va strukturasini jiddiy o‘rganish orqali interpolasiyani aniqlash mumkin. Shuningdek,

¹⁸Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. М.: “Пространство”, 1976, 483-стр.

¹⁹Хожиев А., Нурумов А. ва башка. Т.: “Шарқ”, 2001, 130-бет.

²⁰Хожиев А. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2002, 61-бет.

²¹Д.Куров ва башка. Т.: “Akademnashr”, 2010, 329-бет.

qo'lyozma matnining ilgari o'chib ketishi, yirtilishi natijasida ma'no mavhumligiga sabab bo'lgan o'rinnarini va ayni shu nusxadan ko'chirilgan keyingi nusxalardagi matn bo'laklarini qiyoslash orqali interpolasiyani ajratib olish mumkin.

Kon'ektura – matn kontekstidan kelib chiqib, matndagi xato yozilgan o'rinnar yoki o'qib bo'lmas darajada o'chib ketgan so'z va jumllalarni matn mantig'idan kelib chiqib tiklash. Kon'ektura beixtiyor yoki e'tiborsizlik oqibatida yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatishga nisbatan qo'llanadi.

TARQATMA MATERIAL

G'AZALLAR

O'shal bulbul qilar afg'on, sahar vaqt chaman ichra,
Qo'nar gul deb tikan uzra, sahar vaqt chaman ichra.

Qilar bag'nini bulbul qon, tikan uzra beray deb jon,
Bo'lur gul zavqidin qurban, sahar vaqt chaman ichra.

O'shal bulbul bo'lur dog'lar, chamanni gasht etib chorlar,,
Qizil gulni tilab yig'lar, sahar vaqt chaman ichra.

Chiqar bulbulni afg'oni, chaman ichra oqib qoni,
Tasaddiq gul uchun joni, sahar vaqt chaman ichra.

Muhabbat birla mast erdi, ani yo'lida jon berdi,
Qizil guldin xabar so'rdi, sahar vaqt chaman ichra.

Muyassar bo'lsa ul jonon, ato qilsa o'shal subhon,
Yo'lida jon qilay qurban, sahar vaqt chaman ichra.

Ibrati bexabar bo'lma yana g'aflat bilan o'lma,
Gunohi beedad qilma, sahar vaqt chaman ichra.

* * *

Bo'lma amalga muxtor ozurda jori o'lursan,
Bad fikr fitnasidin dil o'tla qon o'lursan.

Gar to'g'ri so'zi qilursan, ul fahm egri aylar,
Anga tushunturuga dardi dahon o'lursan.

Vallot yoki qozi kori erur mashaqqat,
Ashrorlar so'zidin dardi nihon o'lursan.

Gar ushlasang shariat pos ushlamoq mashaqqat,
Bir qo'l nizomi davlat toki omon o'lursan...

Hasmini bir-birini alar etsa muqayyad,
Ikkisi sanga roji', qaydin omon o'lursan.

Adling bo'lursa aqvi, izhor aylamas hyech,
Gar zarra zulm qilsang, xalqqa ayon o'lursan.

Gar hukmi joriy qilsang norozi har ikkisi,

Man sudga arza bergum, anda yamon o'lursan.

Kelgay birisi birdan, har kimni o'g'ri aylab,
Topguncha tarbiya sen, sendin gumon o'lursan.

Bechoralig'din o'zga ish ixtiyor qilma,
Har chand xo'b bo'lsang, bir dam zamon o'lursan.

Ko'b bo'ldi advokatlar yo omidin vakillar,
Ko'fiyadin bo'lakni bilmas, fig'on o'lursan.

Kelgay zaifi xayli, sanga jadali mayli,
Uqini shast qilg'ay, san bir kamon o'lursan.

Har kasb pesha qilg'il, bo'lmas amal sanga qut,
Bekasb o'tsang Ibrat, muhtoji non o'lursan,

* * *

Tiriklik zahmatidin ushbu kunlardan qalaysizlar?
Bu qimmathik yili bug'doyu unlardan qalaysizlar?

Hamani qo'yjadi o'z holig'a, tashvishlar soldi,
Mushavvash aylagan bu ahli dunlardan qalaysizlar?

Jahon hyech knnga gardush etmadni iqbolima tavri,
Zamona holi mol kofu nunlardin qalaysizlar?

Bosib xalqi jahonni ayladi toroj o'g'rilar,
Salomat yotdigizmu, bo'yla tunlardan qalaysizlar?

Fasodu olam etti shu kabi har yerda insonni,
Bu tarzda fitnayu toroj bunlardan qalaysizlar?

Ki har bir kimsada ming xil alomoti qiyomatlar,
Mashaqqat vaqtini umri o'rirlardan qalaysizlar?

* * *

Ishqing dilu jona jo bo'lubdur,
Jonu dil anga fido bo'lubdur.

San aylamasang agar davosi,
Dardim mani bedavo bo'lubdur.

Ohim tutunila ro'zigorim
Yaldo tuniday qaro bo'lubdur.

Tan bog'iddin andalibi jonim
Kuyingni tilab jalo bo'lubdur.

Ishqing ichra chu men kimi nasibi,
Yori soridin jafo bo'lubdur.

Husn ichra vafo yo'q emish jonon,
Ki sen kabi bevafo bo'lubdur.

Vaslingga yeturg'a Ibrat asru,
Xajt ilkiga mubtalo bo'lubdur.

* * *

Ming uch yuzu yigirma oltida chopmaxona,
Ochmoqg'a bo'ldi ruxsat va so'z berib zamona.

Maqsad bu ishdin erdi olamg'a ilm qasri, -
Ham qo'ymoqg'a asarlar yod ovozi jahona.

Kasbu kamol islom bo'lmay taraqqiyatda,
Holib'a tushmasun deb etduk buni bahona.

Bizdin keyingilar ko'p ilmu hunar toparlar,
Hayfoki anda biz yo'q, e'timodxona.

Olamdin ushbu ona sonsiz kishilar o'tdi,
Mingdin biri qo'yubdur olamg'a bir nishona.

Men katta boy emasdym kim aylasam binoyi,
Dahlim yetishmas erdi ro'zg'ori, choyu nona.

Sad xayfkim g'anilar sarfini bilmadilar,
yeb-ichtilar semurub sig'may turub chofona.

Uz asrimizda o'tti bir necha ag'niyolar,
Qoldurmayin nishona yer ostin etti xona.

Bu sanga katta Ibrat hushyor bo'lki, ketti,
Emdi sanga kelurmu ketgan u ota-on.

KO'RGNONI KELDIM SOG'INIB

Guldek yuzingni dilbarim
Ko'rgoni keldim sog'inib.
San — shohi olam, man — gado,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Ishqingda dilbar zor-zor,
Yig'lab yuribman, ey nigor.
Kel ey, bukun ko'zi xumor,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Sizdin bo'lak yo'qtur kishim,
O'zga bilan yo'qtur ishim.
Mastona ko'zlik mahvashim,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Tan ichra jonim san eding,
Xush mehribonim-san eding,
Shirin zabonim san eding,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Man hasta dil hayron bo'lub,
Ishqingda sargardon bo'lub,
Farvona yanglig' o'rgulub,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

Darding bilan darmondaman,
Topkin iloj bemoraman,
Vasling bilan aftodaman,
Ko'rgoni keldim sog'inib.

ILOVALAR

JOME' UL-XUTUT asarida tahlil qilingan
dunyo tillari

Ibroniy

Suryoniy

Yunon

Slavyan

Sanskrit

Uyg'ur

Yopon

Qadimgi fors

Arman

Lotin

Hind raqamlari

Hind

Piktografik

Yozuvlar

Suls, kufiy,
nasta'liq, rayhoniy,
zulf, tavqi', nasx,
humoyun

Xitoy ieroglifi

دسته پر پور همچنین را اصلی ولی بول خط پید
با میشی او تو بسخندن تار گاهان ریگان

پونامنچه هایی

Греческий

Aa	ا	α	ئ	و	η
Bb	ب	β	پ	و	و
Gg	ج	γ	پ	پ	پ
Dd	د	δ	پ	پ	پ
Ee	ئ	ε	ئ	ئ	ئ
Zz	ز	ζ	ز	ز	ز
Hh	خ	η	و	و	و
Θθ	خ	θ	و	و	و
Ii	ي	ι	ئ	ئ	ئ
Kk	ك	κ	پ	پ	پ
Ll	ل	λ	ل	ل	ل
Mm	م	μ	م	م	م
Nn	ن	ν	ن	ن	ن

بازگشتن از زیر زمین خواهد شد و همه نهادهای اینجا را
بازگشتن از زیر زمین خواهد شد و همه نهادهای اینجا را

بازگشتن از زیر زمین خواهد شد و همه نهادهای اینجا را
بازگشتن از زیر زمین خواهد شد و همه نهادهای اینجا را

ایکان

۹۴	۷۱	۶۱	۲۱	۶	۰
۳	۲	۱	۰	۰	۰
۲	۱	۰	۰	۰	۰
۰	۰	۰	۰	۰	۰
۰	۰	۰	۰	۰	۰
۰	۰	۰	۰	۰	۰
۰	۰	۰	۰	۰	۰
۰	۰	۰	۰	۰	۰
۰	۰	۰	۰	۰	۰

ایپکی هبرانی فیمنده بیکی هبرانی فیکی هم کورک
در کار دور گاه بیکه نیکی ایل ایپکی فرقی جهور .

ئۇيى دەلە بىرەلىك چىقانە دراصلى پۇفينىكى خەطىيەر

قىچىقى حروف فېنىكى

Древне-Феникское письмо

ئ ە ۆ ۱۹ ۱۴ ۱۱ ۸۴

ئ ە ۆ ۲۹ ۳۰ ۳۱ ۳۲

ئ ە ۆ ۱۹۰ ۱۵۷ ۱۵۶ ۱۵۵

ئ ە ۆ

فېنىكى خەلە دەن چىغان كېلىپى جىرانى خەتنى
خەدۇقى ادەلە ھەجىخە طەلار يۈخەرىيەن پېتكى
ۋەزىئەزىزە رايكان بىز نۇونە ئى انگەدىي يانۇ

خەتىپەت. جىشى فەنەر ئىيدى ادەش سەددۇيان

СЛОВЛЯНОКАЯ ХЛЮЧЬИ

ئ ە ۆ ۱۹ ۱۴ ۱۱ ۸۴
ئەزىزەت دەيدە خەندە ئەكى

ئ ە ۆ ۲۹ ۳۰ ۳۱ ۳۲
ئەزىزە ئەن ئەن ئەن ئەن

ئ ە ۆ ۱۹ ۱۴ ۱۱ ۸۴
ئەس ئەن ئەن ئەن ئەن

ئ ە ۆ ۱۹ ۱۴ ۱۱ ۸۴
ئەزىزە ئەزىزە ئەزىزە ئەزىزە

ئ ە ۆ ۱۹ ۱۴ ۱۱ ۸۴
ئەزىزە ئەزىزە ئەزىزە ئەزىزە

ئ ە ۆ ۱۹ ۱۴ ۱۱ ۸۴
ئەزىزە ئەزىزە ئەزىزە ئەزىزە

ئ ە ۆ ۱۹ ۱۴ ۱۱ ۸۴
ئەزىزە ئەزىزە ئەزىزە ئەزىزە

میں نہ لشکر پر افی بھی کو رستہ قبری سی پول بزر

САНСКРИТ. ПИСЬМА

بیکی نہیں کہ وہ سخن

التي حددت جدن بازيلور

ایکن ہر حرف ایک روپ

اگلے ادھر لے دیں

شول طریقہ بولن اکن



Русiske	Ҳангина	Сур'яне	То'кибат	Биринчи
Бришол	11	Киелан	Киелн	Га.
Бриедот	11д	Киевор	Киевор	Ихти
Бринисот	лади	Лади	Киторор	Ихти
Ахжитсе	Сикенса	Сикенса	Лади	Ихти
Будит оғизит	Сикен	Сикен	Онгизате бор	Ихти
Булозит	Дална	Дална	Самак	Понук
Булозит	Дали	Дали	Салюр	Понук
Аомзорит	Жонжирмат	Жонжирмат	Кобайинормат	Жум
Атдиҳа юшхиги	Рахтло	Рахтло	Арам пана	Мөнім
Будит Атдиҳат	Рахт аюлор	Рахт аюлор	Арам пади	Мөнім
Приамовит лишни	Риад айтмат	Риад айтмат	Риаде крна	Райдә
Надимовит	Риаде қилиор	Риаде қилиор	Риаде аюлор	Бриед
Якракамин	Азмайш	Азмайш	Азмана	Амтхана
Якракаминовит	Азмаш қилиор	Азмаш қилиор	Азмаш аидер	Истенүн
Чистит	Арасте	Арасте	Суарна	Мезин
Диҷитит	Арасте қилиор	Арасте қилиор	Арасте аидер	Изин
Аслезиат	Сұнна	Сұнна	Тошмал	Хиотат-нрвол
Аслезиот	Сұнн	Сұнн	Тошар	Душер
Астнат	Сехарар һна	Сехарар һна	Турмек	Дордан
Астайот	Сехарар һи	Сехарар һи	Туран	Дорнор
Асткогат	Азрд һона	Азрд һона	Хане болткан	Дарлан
Будит скогат	Азрд һою	Азрд һою	Хане ယолор	Дармалор
Будит лида оғлан	Сандар	Сандар	Пидакрна	Пидакрна
Сандар	Хане қильмек	Хане қильмек	Пидакрна	Хане

**ISHOQXON TO'RA IBRAT HAYOTI VA
IJODIY-MA'RIFIY FAOLIYATINI
O'RGANISH MUAMMOLARI**

(USLUBIY QO'LLANMA)

Qog'oz bichimi: 60×84 1/16.

Times New Roman garniturasida terildi.

Shartli bosma tabog'i: 4,25.

Buyurtma № 41. Adadi: 100 nusxa.

«ZUXRA BARAKA BIZNES» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy.



